Murakkab, geologik sharoitda quduqlarni burg‘ilash amaliyotidan kelib chiqib, quduqlarni burg‘ilash va mustahkamlash bo‘yicha so‘nggi yillar davomida olib borilgan ilmiy ishlanmalarga asoslanib, quduqlarning konstruksiyasini takomillashtirishni va chuqurlashtirishni oshirishda bir qator amaliy ishlar bajarilgan va ularga quyidagilar kiradi.

Burg‘ilarni kichraytirish yoki ularning kichik diametrlardan foydalanib, oldingi tizmaning boshmog‘idan muvaffaqiyatli chiqishi taminlanadi.

Mustahkamlash tizmasini seksiyali tushirish usulining qo'llanilishi va oraliq tizma dumlarning stvolini mustahkamlash.

Mustahkamlash quvurlarining payvandli biriktiruvchi elementlaridan foydalanish, oraliq va ba'zida ishlatish tizmalarini jamlashda maxsus rezbali muftasiz mustahkamlash quvurlarini qo'llashning mumkinligi.

Quduqni va ishlatish tizmasining oxirgi diametrini kichraytirishni mumkin bo'lgan konstruksiyalardan foydalanish.

Mahsuldor qatlam obyektini ochish va burg'ilashda takomillashtirilgan tugallash texnologiyasini hisobiga quduqning konstruksiyasini yengillashtirish va soddalashtirish imkoniyatini majburiy hisobga olish zarurligi.

Quduq konstruksiyasini loyihalashtirishning asosiy tartiblari.

Hamma mustahkamlash tizmalari qo'llanilishi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

Yo'llanma – birinchi quvur tizmasi yoki bir dona quvur, quduq usti qismini burg'ilash eritmalarining ta'sirida yuvilib ketmasligini va nurashdan himoya qiladi hamda suyuqlikning sirkulyatsiyasini ta'minlaydi. Ba'zida quduqlar ikkita yo'llanma bilan mustahkamlanadi. Bunga qirqimning yuqori qismi lyossimon tuproqlar ko'rinishida yoki boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Amalda yo'llanma oldindan tayyorlangan shaxtaga yoki quduqqa tushiriladi va butun uzunligi bo'yicha betonlanadi. Ba'zida yo'llanma tog' jinsiga o'q kabi urib kirgiziladi.

Konduktor – mustahkamlash quvurlari tizmasi, tog' jinsining yuqori qirqimi oraliq'ini ajratishda qo'llaniladi, chuchuk suvli qatlamlarni ifloslanishdan himoyalaydi, otilmaga qarshi jihozlar montaj qilinadi va navbatdagi mustahkamlash tizmasi osib qo'yiladi.

Oraliq (texnik) tizmasi quduqlarni belgilangan chuqurlikgacha burg'ilash zonalari bir-biriga mos kelmaganda ajratishda qo'llaniladi.

Oraliq mustahkamlash tizmalarining quyidagicha turlari mavjud:

- butunlay quduqning tubidan usti qismigacha bekitiladi, oldingi oraliqni mustahkamligiga bog'liq emas;

- dumli konstruksiya faqat mustahkamlanmagan oraliqlarni va oldingi tizmani bir qismini mustahkamlashda qo'llaniladi;

- uchuvchan (pilot)-konstruksiya – maxsus oraliq mustahkamlash tizmasi bo'lib, faqat murakkab qatlamlarni bekitishda qo'llaniladi va oldingi tizma bilan ham keyingi oraliq tizmasi bilan ham hech qanday birikmaga ega bo'lmaydi.

Mustahkamlash tizmasini seksiyali tushirish va quduqni dum bilan mustahkamlashda:

- birinchidan og'ir mustahkamlash tizmalarini tushirish muammosi amaliy yechimini topadi;

- ikkinchidan quduqning konstruksiyasi soddalashtiriladi, mustahkamlash quvurini diametri kichiraytiladi, quduq devori bilan tizma oralig‘idagi tirqish (zazor) kichrayadi, metallarning sarfi va tamponaj materiallarining miqdori kamayadi, burg‘ilash tezligi oshadi va burg‘ilash ishlarini narxi pasayadi.

Murakkab sharoitda burg‘ilashda (stvolni egrilanishi, og‘nashlarni miqdori katta bo‘lganda) quduqning konstruksiyasida maxsus turdag'i oraliq mustahkamlash tizmasining turi oldindan rejashtiriladi.

Ishlatish tizmasi – eng so‘nggi mustahkamlash quvuri bo‘lib, mahsuldor qatlam oldingi tog‘ jinslarining qatlamidan ajratish uchun to‘liq sementlanadi, quduqdan neft va gaz olish uchun hamda mahsuldor qatlamga suyuqlik va gazni haydashda xizmat qiladi.

Quduq konstruksiyasini asosiy parametrlariga mustahkamlash tizmasini soni va diametri, ularning tushirish chuqurligi, har bir oraliqni burg‘ilash uchun burg‘i diametri, tizmalarni orqasidagi tamponaj aralashmasining balandligi va miqdori, burg‘ilash eritmalarini siqib chiqarishni to‘liq ta’minalash kiradi.

Obyektiv geologik omillarga oldindan hisobga olingen qirqimning haqiqiy stratigrafiyasi va tektonikasi, har xil o‘tkazuvchanlikga ega bo‘lgan tog‘ jinsining quvvati, mustahkamlik, g‘ovaklik, flyuid tarkibiga ega bo‘lgan tog‘ jinslarining mavjudligi va qatlam bosimlari kiradi. Bu omillarning hammasi loyihalashtirish tartibini aniqlaydi.

Quduq konstruksiyasini loyihalashtirishda tog‘ jinsi qirqimining geologik tuzilishi o‘zgartirilmaydigan omil hisoblanadi.

Uyumlarning ishlatish jarayonining birinchi bosqichida qatlamning gidrodinamik tasnifi o‘zgaradi. Bunda qatlam bosimining va haroratining o‘zgarishi ishlatish davrining muddatiga, flyuidlarni olish ko‘rsatgichiga, qazib olishning jadallashtirish usuliga va qatlam bosimini ushlab turishga, yangi usul va texnologiyalarni qo‘llab mahsuldor qatlamdan neft va gazni to‘liq qazib olishga ta’sir qiladi.

Shuning uchun yuqorida keltirilgan omillarni quduqlarni loyihalashtirishda hisobga olinadi.

Quduqni konstruksiyasini loyihalashtirish quyidagi geologik va texnik-iqtisodiy omillarga asoslanadi:

Tog‘ jinslarining joylashuvini geologik xususiyati, ularning fizik-kimyoiy xossalari tasniflari, flyuid tarkibi, gorizontlarning mavjudligi, qatlamning harorati va bosimi hamda burg‘ilanadigan tog‘ jinsining gidroyorilish bosimi;

quduqni burg‘ilashdan maqsad va tayinlanishi;

quduqlarni tugallash usulining oldindan belgilanishi;

quduqlarning burg‘ilash usuli;

burg‘ilash texnologiyasini, texnikasini tashkillashtirish darajasi va burg‘ilash ishlari rayonning geologiyasini o‘rganilganligi;

quduqlarni o‘zlashtirish usullarining texnikasi, ishlatish va ta’mirlash.

Quduqlarning konstruksiyasi atrof-muhit muhofazasi, qatlam suvlarini va qatlamlararo flyuidlarni oqimiga faqat burg‘ilash jarayonida emas, balki ishlatishda va ishlarni tugallashda, hamda quduqlarni to‘xtatishda ham zarar yetkazmaslik talablariga javob berishi talab qilinadi. Shuning uchun mahsuldor qatlamni sifatli va samarali ochilish shartlarining ta’milishini bosh omillardan hisoblanadi.

Hamma texnik-iqtisodiy omillar subyektiv bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi. Bu omillar hamma tashkillashtirish shakllarini tugallanish sathi va darajasiga, butun burg‘ilash ishlarining texnika va texnologiyasiga bog‘liq. Bu omillar quduq konstruksiyasini tanlashda ta’sir qiladi, shu bilan birgalikda ular soddalashtiriladi, lekin loyihalashtirishda bosh omil hisoblanmaydi.

Shunday qilib, quduq konstruksiyasini loyihalashtirish tartibi geologik omillardan kelib chiqib aniqlanadi.

Oddiy konstruksiya (konduktor va ishlatish tizması) hamma holatlarda tejamkor hisoblanadi. Birinchi navbatda bunday bog‘lanish chuqur quduqlar (4000 metrdan katta), mutanosib bo‘lib, kompleks har xil yotqiziqlarni ochishda har xil turdagि murakkabliklar paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "G‘ARBIY O‘ZBEKISTONDA TERRIGEN YURA YOTQIZIQLARINING GAZLILIK ISTIQBOLLARI." *Journal of new century innovations* 38.1 (2023): 93-96.
2. Bo‘riev, Sardor Sayfullaevich. "QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH (QGY) NI AMALGA OSHIRISHDA QO ‘LLANILADIGAN AGREGATLARNING BOG ‘LANMASI." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 1. 2023.
3. Bo‘riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHAROITIDA QATLAM GIDRAVLIK YORILGANDAN KEYIN QUDUQDA YUVISH ISHLARININI AMALGA OSHIRISH BO ‘YICHA KO ‘RSATMALAR." *Educational Research in Universal Sciences* 2.4 (2023): 582-585.
4. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "GAZ AJRATGICHNING ISH PRINSIPI VA TUZILISHINI O’RGANISH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 163-168.
5. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor, and Raufov Mirabbos Mamadali o‘g‘li. "QATLAMNI SINAB KO'RISH USULLARI. QATLAMNI TO'G'RIDANTO'G'RI SINAB KO'RISH USULLARI. XIMOYA TIZMASI ORQALI SINASH." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 34.3 (2023): 169-173.
6. Sayfullaevich, Bo‘riev Sardor. "QUDUQ TUBI DVIGATELLARI YORDAMIDA BURG‘ILASHDA QUDUQNI SIRKULYATSION TIZIMIDAGI BOSIM

YO'QOTILISHINI HISOBLASH." ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 34.3 (2023): 174-178.

7. Bo'riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHROITIDA QO 'LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLANILISH TAHLILI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.1 (2023): 54-58.
8. Bo'riev, Sardor Sayfullaevich. "KON SHROITIDA QO 'LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO 'LLANILISH TAHLILI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.1 (2023): 54-58.
9. Sayfullaevich, Bo'riev Sardor. "QATLAMNI GIDRAVLIK YORISHDA QO 'LLANILADIGAN ERITMALAR TURINI ASOSLASH." *Journal of new century innovations* 11.1 (2022): 69-75.
10. Турдиев, Ш., Комилов, Б., Раббимов, Ж., & Бўриев, С. (2022). Муродтепа майдонида излов-қидирув ишларини баҳолаш тамоилилари ва иқтисодий самарадорлик кўрсаткичлари. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 246-250.
11. 17. Yigitali, Zuxurov, Sultonov Shuhrat. "The use of geographic information systems in modern cartography". Universum: texnicheskie nauki 11-6 (104) (2022): 52-55. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-use-of-geographic-information-systems-in-modern-cartography>
12. 18. SS Adxamovich, MS Usmonovich, RS Adxamovich. Litosfera plitalari tektonikasini o'rghanish (maktabda yer fanlari darslarida). Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi 21 (2), 71-81
13. 19. Sultonov Sh.A., Sultonov A.R., Jononov A.U., Sultonov N.A. Gazlilik va neftlilikni ajratib baholashni geologik asoslash. Research: Journal of Analysis and Trends Том 2. Страницы 1-5
14. 20. Sultonov Sh.A. Chaqilkalon tog 'lari sharqiy qismida tektonik faolliliklar hisobiga hosil bo'lgan ma'dan tanalari xususida. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности. Том 2, Номер1, Страницы 112-118, Дата публикации 2024

**YANGI O'ZBEKISTONDA INSON
HUUQLARI VA SO'Z ERKINLIGI**

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti "Tarix va filologiya"

kafedrasi o'qituvchisi,

rahmonovasanoatshuhratqizi@oxu.uz

Annotatsiya. Maqolada yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash masalasi, va so'z erkinligining ko'rsatkichlari , diniy va siyosiy qarashlari, Inson huquqlarini milliy ko'lama himoya qilish tegishli qonun hujjatlari yordamida, mustaqil sud hokimiyati orqali, himoya vositalarining yakka tartibdagi kafolatlarini qonunchilik yo'li bilan rasmiylashtirish va amaliyatga tatbiq etishi, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar va inson huquqlarini himoya etish va rag'batlantirish kabi masalalar taxlil etilgan.

Tayanch so'zlar: Qonun, erkinlik, Inson huquqlari, vijdon, shaxs, mulk, so'z erkinligi, pluralizm .

KIRISH. Huquqiy islohotlarning muhim jihatlaridan biri – bu inson huquqlarini ta'minlash sohasida xalqaro huquqiy hujjtarga asoslangan milliy qonunchilikni takomillashtirishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash 1991 yil 30 sentyabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ratifikatsiya qildi. Inson huquqlarining qomusiy me'yori hisoblangan mazkur hujjatning milliy qonunchilik doirasida tan olinishi mamlakatimizning davlat mustaqilligini e'lon qilishdek tarixiy jarayon bilan parallel tarzda yuz berdi. Ushbu jihat yana bir bor belgilangan davlat siyosatining izchilligi va ustuvorligidan dalolat beradi. So'ngi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar qatori inson huquqlarini ta'minlash masalasida ham qator o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Vijdon, shaxs, mulk va so'z erkinligi, pluralizm, siyosiy qarashlarning xilma-xilligi va boshqa masalalarda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlana boshladi. Bu borada qator xalqaro reytinglarda ham O'zbekistonning ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'zgardi. Diniy va siyosiy qarashlari bois uzoq muddatlarga ozodlikdan mahrum qilingan minglab yurtdoshlarimiz o'z oilasi bag'riga qaytdi. Uzoq yillardan beri shu yurtda yashab kelayotgan o'n minglab fuqaroligi bo'lмагan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportlari topshirildi. Qo'shni va qardosh, yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan aloqalar yaxshilandi. O'zbekiston har jihatidan yana dunyo e'tiboriga tushdi.

O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, shu qatorda, BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan. Mamlakatda inson huquqlari sohasini yanada rivojlantirish maqsadida Prezident Farmoni bilan 2020 yilning 22 iyun kuni Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston

Respublikasining Milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi ham tasdiqlangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 2020 yil 13 oktabrda qabul qilingan qaroriga asosan O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashiga ko‘pchilik ovoz bilan tarixda birinchi marta uch yillik muddatga saylandi. Endi O‘zbekiston uch yil muddat mobaynida BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Kengashiga a’zo 47 davlatdan biri sifatida faoliyat yuritadi. Yaqin tariximizga murojaat qilsak, ma’lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyinoq, inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida qaray boshladi. Bunga, 1991 yilning 30 sentabrida Inson huquqlari butunjahon Deklaratsiyasi O‘zbekistonning a’zo bo‘lishininng o‘ziyoq yaqqol misol bo‘la oladi. Chunki, ushbu yosh davlat mustaqilligining birinchi kunlaridanoq o‘z oldiga, erkin bozor iqtisodiètiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo‘ygan va bu yo‘lda jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilib kelingan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tan olingan edi.

Inson Huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Bill inson huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilingan eng asosiy hujjatlar majmui bo‘lib, u bu sohada keyinchalik qabul qilingan barcha hujjatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Inson Huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Bill o‘z ichiga inson huquqlari sohasidagi asosiy hujjatlarini birlashtirgan. Bu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

Inson huquqlarini milliy darajada himoya qilish. XX-asrning ikkinchi yarmida ko‘pgina mamlakatlар inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi bo‘lib qoldilar. Bu hujjatlar inson huquqlari sohasidagi normalarni amalga oshirish yuzasidan huquqiy majburiyatlar yuklaganligi bois mazkur sohaga oid normalar xalqaro ko‘lamda amalga oshiriladigan majburiyatlar darajasiga ko‘tarildi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar ayrim shaxslarning o‘zaro munosabatlarini hamda muayyan shaxslar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Shu sababli inson huquqlarini himoya etish va rag‘batlantirish eng avvalo davlatning ichki vazifasi bo‘lib, uning bajarilishi uchun javobgarlik har bir davlat zimmasiga tushadi. Inson huquqlarini milliy ko‘lamda himoya qilish tegishli qonun hujjatlari yordamida, mustaqil sud hokimiyati orqali, himoya vositalarining yakka tartibdagi kafolatlarini qonunchilik yo‘li bilan rasmiylashtirish va amaliètga tatbiq etish, shuningdek, demokratik institutlar tashkil etish yo‘li bilan ta’minlanadi. Bundan tashqari milliy va mahalliy ko‘lamda ishlab chiqilib amalga oshiriladigan, mahalliy sharoitlar hamda an’analar inobatga olinadigan kampaniyalar ham borki, ular ma’rifiy va axborot xususiyatga ega bo‘lgan samarali tadbirlar tariqasida tan olingan. Inson huquqlari milliy ko‘lamda himoya etilishini samarali tarzda amalga oshirish muammosi jahonda, ayniqsa XXI asr boshida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda boshqaruvning demokratik shakli paydo bo‘lganligi èki tiklanganligi inson huquqlari o‘zagini tashkil etuvchi huquqiy va sièsiy asoslarni ta’minlashda demokratik institutlar o‘ynaydigan rolning ahamiyati katta ekanligidan dalolat

bermoqda. Shunday qilib, inson huquqlarini samarali tarzda amalga oshirish eng avvalo bu huquqlarni rag‘batlantirish va himoya etish uchun milliy infratuzilmalar yaratishni taqozo etishi aniq-ravshan ko‘rinib turgan faktga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda jahonning ko‘pgina mamlakatlarida zimmasiga inson huquqlarini himoya etish bilan bog‘liq aniq vazifalar yuklatilgan muassasalar tashkil etildi. Garchi bunday muassasalarning vazifalari har bir mamlakatda o‘ziga xos bo‘lib, bir-biridan farq qilsada, ularning hammasi bitta mushtarak maqsadga erishishni ko‘zlaydi. Shu sababli ham ular inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya etish bilan shug‘ullanuvchi milliy institutlar deb yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili. Parlament huzuridagi Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) instituti O‘zbekiston Respublikasi 1 chi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy Majlisning birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995 yil 6 mayda Oliy Majlis qaroriga binoan uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga ko‘maklashish uchun fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish Komissiyasi tashkil etildi.

Mamlakatimizda olib borilaётган islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda haётning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirdorlarni o‘ylantiraётган dolzarb masalalarni har tomonlama o‘rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidalgi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlandi. Demak, aytishimiz mumkinki, huquqiy demokratik jamiyat qurish bilan bir qatorda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini ortib boraётganidan dalolat beradi. Shuningdek, Hozirgi vaqtida respublikamizda inson huquqlariga rioya qilish va himoyalash masalalari bilan shug‘ullanuvchi bir necha idoralar mavjud. Ulardan ikkitasi qonun chiqaruvchi , bittasi ijroiya va yana biri nohukumat organidir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi yil ish faoliyatida 1995 yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili organi ta’sis etildi va uning ixtiёrida inson huquq va erkinligi bilan shug‘ullanuvchi Komissiya tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko‘ra Respublika inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi davlat idoralalararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi, ya’ni mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqashtiradi, inson huquqlari sohasidagi

ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonda inson huquqlari himoyasi bo'yicha milliy ma'ruzalar tayèrlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axbort bazasi yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlari olib boradi. Markazning asosiy maqsadi – ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini – huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish, jumladan:

Inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;

- Huquqiy èrdam ko'rsatish va inson huquqlarini sud yo'li bilan himoya qilish;
- Inson huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish;
- Turli toifadagi shaxslar huquqini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;
- Inson huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish erkinligini ta'minlash;

Inson huquqlari sohasidagi ta'limning ko'p maqsadli tizimini – alohida ixtisoslashgan kurslardan tortib ommaviy ma'lumot – tanishuv dasturlarigacha tashkil etish

- Ijro xokimiyyati doirasidagi vazirliklar, qo'mitilar, idoralar va muassasalarni inson huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari va erkinliklari tizimining rivojlanishi asosida xalqaro hamjamiyatga kirish yo'llarini shakllantirish.

Markaz faoliyati dasturining g'oyaviy asosi – Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida bayon etilgan huquqiy madaniyatni rivojlantirishning umumbashariy tamoyillaridir. Huquqiy davlat mafkurasini rivojlantirishni ilmiy rejalashtirish inson huquqlarini himoya qilish Milliy konsepsiyasini yaratishni ko'zda tutadi. Bu konvensiyada Sharqning ko'p asrli huquqiy madaniyati tajribasi, bizning buyuk ajdodlarimiz turmush tarzi an'analarini aks etishi lozim. Markazning inson huquqlarini himoya qilish milliy konsepsiyasini yaratish faoliyati inson huquqlari sohasidagi harakatlar milliy dasturining muhim nazariy qismi, mamlakatning ijtimoiy-siésiy haётida tub o'zgarishlar bosqichining boshlanishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi davlat idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi, ya'ni mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruв organlari faoliyatini muvofiqashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonda inson huquqlari himoyasi bo'yicha milliy ma'ruzalar tayèrlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axbort bazasi yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlari olib boradi [4]. Xalqaro aloqalar vositalari orqali ma'lumotlar almashish; hamkorlikda nashrlar – monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, maqolalar to'plami; seminar, konferensiya, simpoziumlar o'tkazish; teleko'rsatuvlar tayèrlash, o'quv va ilmiy-ommabop filmlar yaratish; tezkor ekspeditsiyalar, mamlakatning turli yerlarida joylarga chiqib tadqiqotlar o'tkazish. Markaz o'z faoliyatini amalgalashish.

oshirishda qator xalqaro tashkilotlar bilan; BMT, YEXHT, TASIS, YUNESKO, AQSH, Fransiya, Angliya, Italiya elchixonalari, qator xalqaro nohukumat tashkilotlar va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari Milliy markaz oliy o‘quv yurtlarida inson huquqlari bo‘yicha darsliklar, ma’ruzalar va seminarlar o’tkazilishini amalga oshirmoqda .

O‘zbekistonda huquqiy demokratik jamiyat qurish bilan bir qatorda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini ortib borayotganligidan dalolat beradi. Muhimi, aholining Prezident va Xalq qabulxonalari vositasida yuz berayotgan xolatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, bugungi kunda inson xuquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-xuquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va halqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson xuquqlarini ximoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

REFERENCES

1. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
2. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKİSTONDA MA’NAVİY-MADANIY ISЛОHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
3. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA’NAVİYATLı AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
4. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
5. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children’s Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
6. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
7. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKİSTONDA MA’NAVİY-MADANIY ISЛОHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
8. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA’NAVİYATLı AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
9. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
10. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children’s Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

**GLOBALLASHUV JARAYONIDA TA'LIM-TARBIYA
UYG'UNLIGINING AHAMIYATI**

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti “Tarix va filologiya”

kafedrasi o‘qituvchisi,

rahmonovasanoatshuhratqizi@oxu.uz

Tayanch tushunchalar: Tarbiya insonni har tomonlama shaxs sifatida rivojlanishing amaliy jarayonlarini o‘z ichiga oladigan uzoq muddat uzlusiz tizmli davom etadigan jarayondir.

Kalit so’zlar: globallashuv, ta’lim va tarbiya uyg’unligi, milliylik, axloqiy, jismoniy

“Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo’q. Qanchalik murakkab bo’lmisin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo’yishimiz kerak. Chunki biz ko’p vaqt yo’qotganmiz”.[1]

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim va tarbiya uyg’unligi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.Bunga sabab dunyo manzarasi, integratsiyalashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanib bormoqda.Bunday jarayonlarda yoshlarning qalbida ong-u shuurida bo’shliq paydo bo’lishini olish ularda mafkuraviy imunitetni shakllantirish oldimizda turgan eng asosiy burchlarimizdan biridir.Bu oliy maqsadni ro’yobga chiqarishda biz ta’lim tarbiya jarayonida uyg’unlikka erishishimiz tarbiya milliy tarbiya tushunchalarini oildan boshlab maktabgacha ta’lim muassalarida,umumiyoq o’rta ta’lim muassalarida shu bilan birga oliy ta’lim jarayonida joriy etish ,bu orqali yoshlarda faol fuqarolik pazitsiyasini shakllantirish,o‘z shaxsiy fikriga ega bo’lgan fuqarolarni tarbiyalashdir.Tarbiyaning bosh maqsadi – har tomonlama barkamol,yetuk,vatani taraqqiyotiga,yurt istiqboliga o‘z hissasini qo’shadigan shaxsni shakllantirish. Milliy tarbiyaning bosh maqsadi esa yuksak madaniyatli mutaxassisni ma’naviy – axloqiy tarbiyalash bo’lib bu maqsad orqali jamiyatning alohida olingan extiyojlarni aks ettirishini, uning mohiyatini, ideal talablarini, o’ziga xosligi va fazilatlarini, hayotiy munosabatini, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik rivojlanishini nazariy asoslaydi va umumlashtiradi.Milliy tarbiya jarayonining mohiyati haqida so’z boshlashdan oldin uning shakllanish jarayonlarini ko’rib chiqsak.milliy tarbiya bu nima? Tarbiya tushunchasning mohiyatini qisman bo’lsa ham ko’rib chiqdik xo’sh milliy tarbiya bu nima? Qachon paydo bo’ldi tarbiyadan farqi nimada degan savollar paydo bo’lishi tabiiydir.Milliylik bu har bir millatning elatning o’ziga xos va ungagina tegishli bo’lgan qadriyatlari,ijtimoiy

hayoti, urf-odatlari, ananalari asosida yuzaga keladigan umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiradigan omildir."Milliy tarbiya" tushunchasi ko'p qirrali tushunchadir.

➤ Aniq bir maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyatning Milliy qadriyatlar asosida olib borilishi:

➤ Har bir xalqqa xos va mos bo'lgan umuminsoniy tarbiyaning betakror shakli;

➤ Xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish(YUNESKO tamoyili) vositasi;

➤ Turli xalq va millatlar bolallarini har tomonlama rivojlantirish jarayoning xususiy, ma'naviy manbasi

➤ O'quvchilarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, axloq go'zallik, iqtisod, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;

➤ Millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo'li va vositasi;

➤ Insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning amaliy-peadogogik yo'li;

Buyuk mutafakkir bobomiz Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning inson hayotida uning shaxs bo'lib shaklanishida shu bilan birga millat ravnaqidagi o'rni haqida to'xtalib o'tib tarbiyani uchta kategoriysi borligini sanab o'tadi:

1) Aqliy tarbiya

2) Axloqiy tarbiya

3) Jismoniy tarbiya

Qolgan barcha tarbiya kategoriyalari anashu uch asosiy kategoriya negizida shakllanadi. Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti tog'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish)qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rinn tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- ilmiy bilimlarning muayyan hajmini shaxs tomonidan o'zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- iqtidor va aqliy qobiliyatni rivojlantirish;
- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiyl o'rta ta'llim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.

- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.Ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlar islom ta'lomitida va "Qur'on karim" "Hadisu shariflarda"ham o'z ifodasini topgan.

Muhammad alayhissalom o'z Hadislarida; "Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir" deydi.

Shuningdek, Hadisi Sharifda "Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir" deydilar.Tarbiya kategoriyalari orqali insonda tabiat,din, mehnat qilishga oid qarashlar shakllanadi va insonning hayotda o'z o'rnini topishga amaliy ko'maklashadi.

REFERENCES

1. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
2. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKİSTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
3. Rahmonova, S. (2023). YUksak Ma'naviyatlı Avlod-Uchinchı Rinessans BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
4. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
5. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
6. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
7. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKİSTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
8. Rahmonova, S. (2023). YUksak Ma'naviyatlı Avlod-Uchinchı Rinessans BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
9. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
10. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

12. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE FORMATION OF HUMAN WORLD VIEW. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 135–144. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/6315>
13. Vahobovna, S. G. (2024). XX ASR BOSHLARIDA XITOYNING YAPON AGRESSIYASIGA QARSHI KURASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 264-273.
14. Srojeva, G. (2024). 1929-1932-YILLARDAGI JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA YAPONIYA. *NRJ*, 1(2), 118-128.
15. Vahobovna, S. G. (2024). Canada during the world economic crisis of 1929-1933. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(4), 48-54.
16. Srojeva, G. . (2024). ATTENTION PAID TO PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN NEW UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 258–266. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30750>
17. Srojeva, G. (2024). THE CANADIAN ECONOMY DURING THE GLOBAL ECONOMIC CRISIS. *Modern Science and Research*, 3(2), 57–63. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30678>
18. Vahobovna, S. G. (2024). Role of Preschool Educational Institutions in Education of a Perfect Person. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 208-214.
18. Vahobovna, S. G. (2023). QUYI ZARAFSHON VOHASI TURIZM IMKONIYATLARI.
19. Srojeva, G. . (2024). STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PRESCHOOL EDUCATION AND TRAINING INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 673–681. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29450>
20. Srojeva, G. (2024). INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 1041–1050. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29547>
21. Srojeva , G. . (2024). SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(1), 782–788.
22. Srojeva, G. (2024). EFFECTIVE FORMS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION AND EDUCATIONAL WORK IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. *Modern Science and Research*, 3(2), 247–253. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29010>
23. Vahobovna, S. G. (2021). Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani And Its Method. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 39-40.

THE PROCESS OF ARTISTIC TRANSLATION INTERACTION OF LANGUAGES AND CULTURES

Abdunazarov Nizom Suronjonovich

Jololov Sherali Abdullaevich

1st year graduate student

ABSTRACT: In this article, the process of literary translation is the interaction of languages and cultures. The semantic model of translation covers the issues of studying the semantic aspect of the original text and translated texts, comparing speech units, analyzing their structure, separating units or components in the original text and selecting equivalent or similar units in the translated language.

KEY WORDS: Translation , adequacy, situational, hierarchical, conceptual, transformational, semantic, semanticsemiotic, communicative, informative, psycholinguistic.

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada badiiy tarjima jarayoni tillar va madaniyatlar o'zaro ta'siri, tarjimaning semantik modeli asl matn va tarjima matnlarining semantik tomonini o'rganish, nutq birliklarini taqqoslash, ularning tuzilishini tahlil qilish, asl matndagi birliklar yoki komponentlarni ajratish va ularga tarjima tilida ekvivalent yoki o'xshash birliklar tanlash masalalarini qamrab olishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: Tarjima , adekvatlikka, situatsion, ierarxik, konseptual, transformatsion, semantik, semantiksemiotik, kommunikativ, informativ, psixolingvistik.

АННОТАЦИЯ: В данной статье процесс художественного перевода представляет собой взаимодействие языков и культур, семантическая модель перевода - это исследование смысловой стороны исходного текста и переведенных текстов, сравнение речевых единиц, анализ их структура, разделение единиц или компонентов в исходном тексте и их перевод на переведенный язык предназначены для освещения вопросов выбора эквивалентных или аналогичных единиц.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Перевод, адекватность, ситуативный, иерархический, концептуальный, трансформационный, семантический, семантикосемиотический, коммуникативный, информативный, психолингвистический.

INTRODUCTION.

Despite a number of works carried out in the process of teaching literary translation and the positive changes achieved, it is necessary to further accelerate the dynamics of the development of translation efficiency, to effectively use the conditions and opportunities created in this, to provide the linguistic and didactic foundations of

teaching S1 students to literary translation on a large scale. supply of qualified interpretation specialists - future translators - is an urgent issue today.

Translation is a means of communication between people who speak different languages. If we consider communication in the form of artistic translation in the form of intercultural communication, the process of translating a text from one language to another has many different characteristics.

The theory of translation is necessary for a student translator, an inexperienced translator, a professional translator, and a teacher of translation .

METHODOLOGY.

Currently, the most common models of the translation process are: situational, conceptual, transformational, semantic, semanticsemiotic, communicative, informative, psycholinguistic, model of the theory of equivalence levels, etc., which provide the opportunity to implement the translation process in different ways.

The translation of the text should match or be broadly similar to the source text. Among the linguistic models of translation, semantic (Dj. Catford), communicative (O. Kade), conceptual (LK Latishev), transformational (Yu. Nayda) and situational (VG Gak) models stand out in the process of literary translation.

The semantic model of translation covers the issues of studying the semantic side of the original text and translated texts, comparing speech units, analyzing their structure, separating units or components in the original text and choosing equivalent or similar units for them in the translated language. In order to achieve adequacy in literary translation, the translator must derive from the content of the text, the ideological direction and the style of the author.

VN Komissarov created an excellent model of equivalence levels with five hierarchically interconnected levels.

These are:

- 1) level of the purpose of communication;
- 2) level of description of the situation;
- 3) level of description of the situation;
- 4) level of sentence structure;
- 5) level of lexical-semantic compatibility.

The situational model of translation proposed by VG Gak gives the following three cases the expected result when adequately determining the situation in the original text when creating an equivalent text in the translated language.

- 1) when translating non-equivalent lexical units;
- 2) when the situation described in the original clearly determines the choice of translation;
- 3) in the case where there is only one way to describe a certain situation in the translated language, regardless of how the situation is described in the original.

In our opinion, the solution of issues such as creating, perceiving and understanding the speech message in the formation of a communicatively oriented model of translation is related to linguistic aspects. The communicative model of translation is a generalized model of perception of the original text in a foreign language and culture, and its task is to create an adequate or equivalent form of the translation of the original text in the target language.

RESULT AND DISCUSSION.

Therefore, translation should be taught as a separate field of study, the acquisition of translation skills is not an activity intended only for exceptionally gifted people. This situation is now fully recognized and in all educational institutions that train translators, students are offered training in the theory and practice of translation. However, this skill is not at the same level for everyone, it can be developed and brought to a professional level. Teaching translation is not only practical, i.e., it is important to form the necessary translation competence in students.

The principles of modular teaching do not contradict the general didactics, but reflect their new aspects, opening up from the point of view of organizing the pedagogical process in a different way. Modular teaching is a natural result of the evolution of pedagogical theory conditioned by the social system and the logic of scientific and technical development. According to domestic and foreign theory and practice, it shows the tasks of modular training, which is determined by the logical integrity and consistency of the cycles of knowledge. In educational institutions, modular education is increasingly used to improve the effectiveness of teaching students.

In the field of translation, based on module technology, it covers:

1. It consists of studying and analyzing scientific and technical words in the texts, in-depth study of psychology, sociology, cultural studies and formation of professional competence in students.
2. The review of the typology of texts consists of an excellent analysis of texts in the scientific field.
3. To choose the right textbook in the work of translators and teach students to adapt to it.
4. Use at the linguistic, extralinguistic modular level when using the textbook.
5. Explaining the process of translation with PPT programs based on module technology to students depending on the allotted time.
6. Adapt and teach according to the worldview of each student.
7. When working on the technology of the module, correctly perform the translation and choose a dictionary with a specific goal.
8. To show their knowledge on step-by-step individual rating.

ND Nikandrov analyzes the experience of using modular training in foreign educational institutions and associates the positive effect obtained as a result of such training with the variability and flexibility of educational elements and modules.

It also fulfills important general linguistic and general educational obligations. Using each language, the features of the "worldscape" reveal common and unique aspects in the culture and thinking of representatives of different language communities.

CONCLUSION.

When determining the place of translation in the process of teaching a foreign language, these arguments, which can easily be multiplied, should be taken into account. However, they are not as obvious as they seem. First of all, it can be noted that the mentioned shortcomings are characteristic of unsupervised "spontaneous" translation performed by the student himself or improperly organized educational translation. Due to the lack of the necessary theoretical training of the student, such correspondence, as a rule, is very vague, and sometimes simply incorrect. To a large extent, language learning consists of correcting or eliminating these "spontaneous" correlations .

Thus, the reason for the negative influence of the mother tongue system on the process of learning a foreign language is not in any way educational translation. On the contrary, there is every reason to believe that the spontaneous "mixing" of translation can serve as an effective means of correcting bilingualism. During translation, the student always makes sure that there is no clear correspondence between the units and structural formulas of different languages. A properly designed system of translation exercises allows the student to get acquainted with the specific features of methods of transmitting various content elements in the language being studied.

REFERENCES USED

1. Ахмедова С. Р. Таълим ва тарбия жараёнлари узвийлигининг самарадорлиги //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 369-373.
2. Abduraxmanova, Z., & Mamurova, M. (2021). THEORETICAL APPROACH TO SPEECH DISFLUENCIES IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION. In МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 43-45).
3. Rakhmatullayevna, A. D. (2022). TALABALARDA TARJIMA METODLARI ORQALI TARJIMONLIK BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Scientific Impulse, 1(4), 757-759.
4. Raxmatullayevna, A. D. (2023). TARJIMA METODLARI CHET TILI DARSLARINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(15), 345-352.

**8-SINF ALGEBRA DARSLARIDA KVADRAT TENGLAMA
MAVZUSINI O'RGATISH USULLARI VA O'QUVCHILARDА
KO'NIKMALAR HOSIL QILISH**

Mamatsoliyeva Intizor

*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika
fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 8-sinf darsligida berilgan „Kvadrat tenglamalar”ni o'quvchilarga tushuntirishning oson usullari va yana o'quvchilarda yangi mavzu haqida ko'nikmalar hosil qilish haqida.

Kalit so'zlar: matematika, kvadrat tenglama ,diskriminant,Viyet teoremasi, tenglama ildizi, haqiqiy sonlar.

ANNOTATION

This article is about easy ways to explain "Quadratic Equations" given in the 8th grade textbook to students and also about creating skills in students about a new topic.

Key words: mathematics, quadratic equation, discriminant, Viet's theorem, square root, real numbers.

АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена простым способам объяснения учащимся «квадратных уравнений», приведенным в учебнике для 8-го класса, а также формированию у учащихся навыков по новой теме.

Ключевые слова: математика, квадратное уравнение, дискриминант, теорема Вьетса, квадратный корень, действительные числа.

Kirish

“ Biz Yangi O'zbekistonni bunyod etishda sog'lom va barkamol yoshlarimizni hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Shu maqsadda ularning bilim, madaniyat, san'at va sport bo'yicha salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirdorlik faoliyatini rag'batlantirish borasida ham yangi tizim yaratamiz.

Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni – bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi! “^[1]

Prezidentimiz aytganidek ta'lim-tarbiya hayotimiz ustunidir.Bilimli yoshlar O'zbekistonni yuksaklarga ko'taradi.Ular qaysi fan bo'lishidan qatiy nazar bilim olishlari kerak.Lekin matematika fani barcha fanlar bilan aloqador bo'lgani uchun bu fanni yaxshilab o'rGANISHLARI lozim deb bilaman.

Matematika fani azaldan aniq, qiziqarli, jumboqlarga boy, mashaqqatli fanlardan biri bo'lib kelgan.Tan olish joizki, hech bir fan matematika fani kabi inson

aqliy faoliyati, tafakkuri, matiqiqy fikrlash doirasini turtki berib o‘rnidan qo‘zg‘ota olmaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, matematika fanlar shohi deyilishi. O‘quvchi bu fan bilan mashg‘ul bo‘lgan paytda butun diqqat e’tibori jamlanadi, o‘ylash, fikrlash faoliyati faollashadi.

Kvadrat tenglama — matematikada ko‘p hadli, bir o‘zgaruvchili va ikkinchi darajali tenglama. Umumiy ko‘rinishi odatda quyidagicha ifodalanadi:

$$ax^2 + bx + c = 0$$

Bu yerda — a,b,c haqiqiy /sonlar va a= 0. Agar a=1 bo‘lsa, kvadrat tenglama keltirilgan tenglama, agar a=1 bo‘lsa, keltirilmagan tenglama deyiladi. a,b,c sonlari quyidagicha ataladi:

- a — birinchi (bosh) koeffitsiyent;
- b — ikkinchi koeffitsiyent;
- c — ozod had.

O‘quvchi matematika fanini o‘rganish jarayonida qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy. Bunda o‘qituvchiga yuqori mas’uliyat yuklanadi. Ayniqsa yuqori sinf matematika fani “Algebra” va “Geometriya” fanlariga bo‘lib o‘tiladi. Shuningdek, mavzular sekin-asta murakkablashib boradi. Xususan, 8-sinf algebra fanidagi mavzularni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, unda 5 ta bobga bo‘lingan holda mavzular aks ettiriligan. Boblar nomi quyidagicha:

1. I bob. Kasrlar va ular ustid amallar;
2. II bob. Tengsizliklar;
3. III bob. Kvadrat tenglmalar;
4. IV bob. Ma’lumotlar tahlili;
5. V bob. Takrorlash.

E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak I va II bob mavzusining qamrovi o‘quvchi uchun umuman notanish bo‘lgan tushunchalar emas. Bu mavzular bo‘yicha quyi sinflarda ham dastlabki bilimlarni egallashgan. III bobdan boshlab, chinakamiga, o‘quvchilar uchun yangi bi ratama bo‘lgan “Kvadrat tengllama” tushunchasi berilgan. Kvadrat tenglamatushunchasi va uning yechilish usullarini birma-bir tahlil qilib chiqsak.

$ax^2+bx+c=0$ ko‘rinishidagi tenglamalar kvadrat tenglama deb ataladi. Bunda a,b,c – kvadrat tenglamaning koeffitsiyentlari, x esa noma’lum son. $3x^2-x-2=0$ bosh koeffitsiyent “3”, ikkinchi koeffitsiyent “-1”, ozod had “-2”.

Kvadrat tenglamalarning yechish usullari 4000 yil oldin qadimgi Bobilda paydo bo‘lgan. Bobil materiallarida keltirilgan tengamalarning yechish usullari hozirgi zamonaviy yechish usullari bilan bir xil usulda bo‘lgan.

Kvadrat tenglma yechishning bir nechta usullari mavjud:

1. Ko‘paytuvchilarga ajratish orqali ildizlarni toppish usuli;

2. Diskriminant va kvadrat tenglamani ildizlarini topish formulasi orqali yechish usuli;

$$D=\sqrt{b^2 - 4ac}, \quad X_1 = \frac{-b + \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}, \quad X_2 = \frac{-b - \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$$

3. Viyet teoremasi orqali tenglamani yecish usuli.

$$x^2 + px + q = 0, \quad x_1 \cdot x_2 = q, \quad x_1 + x_2 = -p.$$

Kvadrat tenglamani ko‘paytuvchilarga ajratish orqali ildizlarini topishda eng muhim jihat shuki, ozod hadni 2 ta mos ko‘paytuvchiga ajratish. Agar o‘quvchining sonlar ustida arifmetik amallarni bajarish qobiliyati yaxshi bo‘lsa, u holda bu usul orqali kvadrat tenglamani ildizlarini topish o‘quvchi uchun muammo tug‘dirmaydi.

Endi ko‘paytuvchilarga ajratish usuli orqali quyidagi kvadrat tenglamalarning ilidizlarini topamiz

1-misol. $x^2 - 5x + 4 = 0$ tenglamani ko‘paytuvchilarga ajratamiz. Bunda ozod hadni ya’ni, tenglamamizdagi ozod had “4” sonini shunday 2 ta ko‘paytuvchiga ajrataylikki, hosil bo‘lgan sonlarni qo‘shganimizda “-5” soni ya’ni, ikkinchi koeffitsiyent hosil bo‘lsin. Demak “4” sonini ko‘paytuvchilarga ajratib ko‘ramiz: $4=1\cdot 4$, $4=2\cdot 2$, $4=-1\cdot(-4)$, $4=-2\cdot(-2)$ bu tengliklarni ko‘rib chiqsak, $4=-1\cdot(-4)$ shu sonlarning yig‘indisi -5ga teng bundan kelib chiqadiki,

$$x^2 - 5x + 4 = 0$$

$$(x-1)(x-4) = 0$$

$$x_1 = 1, x_2 = 4$$

2-misol. $x^2 + x - 6 = 0$ demak tenglamadagi ozod had “-6”. Biz shunday ikki ko‘paytuvchi topishimiz kerakki ularning ko‘paytmasi “-6”ga yig‘indisi “1” ga teng bo‘lishi lozim.

$$(x-2)(x+3) = 0$$

$$x_1 = 2, x_2 = -3$$

Xuddi shunday quyidagi tenglamalarni ham ko‘paytuvchilarga ajratib ko‘rib chiqamiz.

$$1. x^2 + 6x - 7 = 0$$

$$(x-7)(x+1) = 0$$

$$x_1 = -5, x_2 = 3$$

$$2. x^2 + 4x - 12 = 0$$

$$(x+6)(x-2) = 0$$

$$x_1 = -6, x_2 = 2$$

$$3. x^2 + 2x - 15 = 0$$

$$(x+5)(x-3) = 0$$

$$x_1 = 7, x_2 = -1$$

Kvadrat tenglamani ildizlarini topish formulasi orqali ham tenglamani ishlashimiz mumkin. Bunda quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$D=\sqrt{b^2 - 4ac}, \quad X_1 = \frac{-b + \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}, \quad X_2 = \frac{-b - \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$$

Bu formula orqali tenglama ildizlarini topishda uchta holatni o‘rganib chiqamiz.

1. $ax^2 + bx + c = 0$, $D > 0$ bo‘lganda tenglamaning 2 ta ildizlari mavjud.
2. $ax^2 + bx + c = 0$, $D < 0$ bo‘lganda tenglamaning ildizlari mavjud emas.
3. $ax^2 + bx + c = 0$, $D = 0$ bo‘lganda tenglama 1 ta ildizga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kvadrat tengamalarni yechishda asosan 3 ta usul bor. Bu usullarni yuqorida ko'rib chiqdik, O'quvchi bu mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun bu mavzuga doir misol va masalalarni ko'proq yechishlari va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarishlari kerak. Albatta o'qituvchi ham darsni mukammal ya'ni o'quvchilarga tushungan holatda olib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. SH.A.Alimov,O.R.Xolmuhamedov,M.A.Mirzaahmedov.Algebra.8-sinf darslik.Toshkent – 2019.
2. www.cyberleninka.ru
3. <https://uz.wikipedia>

**VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY VA TEXNIK
TAYYORGARLIK USULLARI**

Jumaaliyev Abishaliy Baxit uli

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

2-kurs magistranti

Kazakov Allayar Radjapovich

Doc. V.v.b.professor, taqrizi asosida

Annotatsiya. Ushbu maqolada voleybolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik usullari hamda Jahonda voleybol sport turiga tanlab olish. yo‘naltirish va turli yosh guruxlariga mansub voleybolchilar tayyorlash xususiyatlari texnik va taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgartik, sakrovchanlik, maxsus tezkorlik, maxsus chidamkorlik va sakrash chidamkorligi sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, xujumda qo‘llaniladigan yakka taktik xarakatlarga o‘rgatish va mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llaniladigan texnik vositalarni ishlab chiqish va maxsus tayyorganliklarni nazorat qilish yuzasidan ilmiy izlanishlar o‘tkazilgan. Hoziri vaqtda malakali voleybolchilarning jismoniy ish qobiliyatini shakllantirshish va uni baholash metodikasini takomillashtirshi zarurati yetarli darajada o‘rganilmaganini xisobga olib ushu yo‘nalishda keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish kerak bizning nazarimizda.

Kalit so‘zlar. voleybol, tezkorlik, taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgartik, sakrovchanlik, maxsus tezkorlik, maxsus chidamkorlik, sakrash

KIRISH. Bugungi kunda jahonda jismoniy tarbiya va sport millat genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalash vositasi sifatida yildan- yilga turli yosh guruhlariga mansub axolining kundalik extiyojiga aylanib bormoqda. Jahonda shug‘ullanuvchilar soni jihatidan ommalashgan sport turlaridan biri sanalgan voleybolda keskinlik tezkorlik, favqulodda shiddat tobora ortib bormoqda. Texnik-taktik usullarning rang-barangligi oshib, ularning samaradortigini ta’minlovchi tezkor harakatlar, sakrashlar, yiqilib o‘ypashlar tufayli bu o‘yinnining tomoshabopligi ilgaridan xam ancha kuchaydi. Shu tufayli Voleybol sport turiga yoshlarni saralash va ular bilan o‘tkazilgan o‘quv-mashg‘ulotlarni shug‘ullanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan xolda ilmiy asosda tashkillashtirish zamon talabi bo‘lib qolmoqda.

Jahonda voleybol sport turiga tanlab olish. yo‘naltirish va turli yosh guruxlariga mansub voleybolchilar tayyorlash xususiyatlari texnik va taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgartik, sakrovchanlik, maxsus tezkorlik, maxsus chidamkorlik va sakrash chidamkorligi sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, xujumda qo‘llaniladigan yakka taktik xarakatlarga o‘rgatish va mashg‘ulotlar

jarayonida qo'llaniladigan texnik vositalarni ishlab chiqish va maxsus tayyorganliklarni nazorat qilish yuzasidan ilmiy izlanishlar o'tkazilgan. Hoziri vaqtida malakali voleybolchilarning jismoniy ish qobiliyatini shakllantirshish va uni baholash metodikasini takomillashtirshi zarurati yetarli darajada o'rganilmaganini xisobga olib ushbu yo'nalishda keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish kerak bizning nazarimizda.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda voleybol sport turi ayniqsa bolalar sportini rivojlantirish va ommaviylashtirishga ustvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. "Yosh avlodni ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish va ruyobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakillantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda". So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi, uning faol sa'yi-harakati va bevosita rahbarligida barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya, ommaviy va professional sport davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalari qatoridan joy olgan masalalardan biridir. Yurtimizda voleybol sport turi ommalashgan sport turlaridan joy olgan bo'lsada ammo Xalqaro sport musobaqalarida sportchilarimizni yuqori natijalarga erishish voleybol bo'yicha sportchilar tayyorlash tizimida yetarlicha xato va kamchiliklar borligini ko'rsatadi chunki yosh voleybolchilarni tayyorgarlik jarayonlarida maxsus ish qobiliyatini rivojlantirmas ekanmiz biz qo'yilgan maqsadga erisholmaymiz. Bu esa voleybol sport turida yuqori malakali sportchilarini tayyorlash tizimidagi dolzarb muammolardan sanaladi. Voleybolda ham boshqa sport turlari kabi o'rgatishning asosiy vositasi jismoniy mashqlar hisoblanadi. Ular juda turli-tumandir. Shuning uchun ular ma'lum bir o'rgatish bosqichidagi qo'yilgan vazifalarni hal etishdagi o'rni bo'yicha turkumlanadi. Bunday turkumlanishga voleybolchi-larning musobaqa faoliyati asos qilib olingan. Shunga bog'liq holda mashqlar ikki katta guruhga ajratiladi: asosiy yoki musobaqa va yordamchi yoki trenirovka. Barcha mashqlar o'zining yo'nalishiga qarab trenirovkalarining tarkibiy qismiga kiritiladi. Bu tayyorgarliklar quyidagilardir: umumiy jismoniy; maxsus jismoniy; texnik; taktik; integral (yaxlit o'yin). Har bir tayyorgarlik turining o'ziga xos yetakchi vositalari mavjud bo'lib, ular yordamida maxsus vazifalar yechiladi. Shu bilan birga bir tayyorgarlik turiga oid bo'lgan mashqlar boshqa tayyorgarlik turidagi mashqlar bilan yaqindan bog'langan bo'ladi. Masalan, shug'ullanuvchida tezkorlik-kuch sifati zarur darajada rivojlanmagan bo'lsa, u hujum zarbasi berish texnikasini bajara olmaydi. Bu holda tezkorlik-kuch sifatini rivojlantirishga oid mashqlarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki hujum zARBASINI takrorlash hajmini oshirish bu holda samara bermaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature review). Voleybol harakatlariga o'rgatishda vositalarning samarasini ko'p hollarda ularni qo'llash uslublariga bevosita bog'liq bo'ladi. Uslublar qo'yilgan vazifa, shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, aniq shart-sharoitlarga bog'liq holda tanlanadi va qo'llanadi. Qo'yilgan vazifaga bog'liq ravishda aynan bir vositani turli uslublarda qo'llab, undan

turlicha foydalanish mumkin. Bundan tashqari, har bir tayyorgarlik turida vazifalar va turlarning ketma-ketligi ham ma'lum mantiqiy bog'liqlikka egadir. Bir tayyorgarlik turidagi vazifalar sifat jihatidan o'zgarib, keyingi tayyorgarlik turiga zamin yaratadi. Masalan, tayyorgarlik mashqlari o'rganilayotgan texnik usulning umumiyliz tuzilishini ifoda etadi. Yaqinlash-tiruvchi mashqlar maxsus jismoniy tayyorgarlikdan texnik tayyorgarlikka o'tishda ko'prik vazifasini o'taydi. Ma'lum darajadagi murakkablik asosida qurilgan texnik mashqlar taktik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu asosda keyinchalik yakka tartibdagi taktik harakatlar o'rganiladi. Voleybolda o'rgatishning asosiy xususiyati – bu sport turining harakat malakalari va unga oid maxsus bilimlarni egallashga qaratilgandir. Voleybolda harakatlarga o'rgatish umumdidaktik tamoyillarga asoslanadi hamda harakat ko'nikma va malakalarini hosil qilish qonuniyatlaridan kelib chiqadi. O'rgatish jarayonida qo'llaniladigan uslublarni har bir o'rgatish bosqichiga mos ravishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Birinchi bosqich – o'rganilayotgan usul bilan tanishish. O'rgatishning bu bosqichida harakatni uning asosiy variantida umumiyliz tarzda bajarish ko'nikmasini tarkib toptirishdan iborat. Bu bosqichda shug'ullanuvchilar yangi o'rgatilayotgan harakat texnikasining negizini o'zlashtirib olishlari kerak. Bosqich davomida dinamik stereotipning asosi yaratiladi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyatlari: harakatlarning faza va vaqt jihatidan yetarli darajada aniq bo'lmasligi; mushak harakatlarining aniq emasligi; harakat sur'ati ritmining barqaror emasligi; keraksiz qo'shimcha harakatlarning mavjudligi; murakkab harakat fazalari o'rtasida yaqinlikning yo'qligidir. Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, o'rgatishning birinchi bosqichida quyidagi vazifalar hal etiladi: 1) harakat to'g'risida tasavvur hosil qilish; 2) o'rganilayotgan yangi harakatni o'zlashtirish uchun uni ma'lum harakatlar bilan to'ldirish; 3) keraksiz harakatlarni, mushaklarning keraksiz darajada kuchlanishini yo'q qilish; 4) harakatni dastlabki holatda to'la bajarishga erishish. Boshlang'ich o'rgatish bosqichida turli uslublardan foydalanish ham o'z xususiyatiga ega bo'ladi. Harakatlarga o'rgatishning boshlang'ich vaqt shu harakatlar bilan oldindan tanishib chiqish hisoblanadi. Bunga harakatlarning ahamiyati va xususiyatini so'zlab berish, shuningdek, uni bevosita amalda bajarib ko'rsatish orqali erishiladi. So'zlab berilganda, o'rganuvchilar harakatlardan ko'zda tutilgan maqsadni, harakatlarning ahamiyatini tushunib olishlari kerak, suhbat ularning harakatlarni o'zlashtirishlari uchun zarur ko'mak bo'lishi, irodaviy kuch yaratishga yordam berishi zarur. Namoyish ikki ko'rinishda amalga oshiriladi. Birinchidan, odatda, harakat asosiy variantda to'liq ko'rsatiladi. Harakatni aniq va chiroyli namoyish etilishiga e'tibor qaratish zarur. Ikkinchidan, harakat texnikasining asosi namoyish etiladi. Bu holda didaktik ifodali ko'rsatish usullaridan (harakatni sekinlashtirish, asosiy fazalarni ajratib ko'rsatish va hokazolardan) foydalilanadi. Harakatni dastlabki o'rgatishda uning asosiy fazalari haqida tasavvur hosil qilish imkonini beruvchi xilma-xil usullar qo'llaniladi. Bunga obrazli tushuntirish, ta'sirli ko'rsatish, ko'rish oriyentirlari, ovoz signallari, harakatni

sezishga asoslangan usullar, jumladan, predmet xarakteridagi topshiriqlar berish (nimanidir olish, cho‘zilib nimagadir qo‘l tekkizish, nimanidir ustidan oshirib tashlash va hokazo), o‘rganuvchida harakatlarni to‘g‘ri bajarganda yuzaga kelishi lozim bo‘lgan sezgilarni aytib berish kabilar kiradi. Shug‘ullanuvchilar tomonidan harakatlar faqat to‘g‘ri bajarilgan holatlarni emas, balki xatolar bilan bajarilganini ham namoyish qilish maqsadga muvofiqdir. Bu shug‘ullanuvchilarning xatolarni yaxshiroq va tezroq tushunib olishlariga yordam beradi. Tovush signallari asosiy kuch beriladigan paytni aytib berish, shuningdek, harakat aktining ritm va sur’atini belgilash uchun qo‘llaniladi. Murakkab tuzilishdagi mashqni, qoidaga ko‘ra, qismlarga taqsimlab amaliy o‘zlashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Harakatlarni qismlar bo‘yicha o‘rganishda nerv jarayonlari dinamikasi yengillashadi. O‘rgatishni tashkil etishga bo‘lgan muhim talablardan biri – nisbatan doimiy sharoit: harakatning asosiy variantini va o‘rgatish sharoitini saqlashdir. O‘rgatishning tizimliligi topshiriqning optimal miqdorda takrorlanishi va ular orasidagi oraliqning qanchalik kattaligini aniqlash zarurligi bilan tavsiflanadi. Shug‘ullanuvchilar topshiriqni shunday oraliqlarda bir yo‘la bir necha marta bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishi, bu oraliqlar o‘rganuvchilarning trener ogohlantirishini yaxshi idrok etishiga, bajarilish sifatini bilishiga, navbatdagi vazifani va ijroni yaxshilash yo‘lini tasavvur etishiga, shuningdek, buning uchun zarur bo‘lgan kuchni tiklashga imkon berishi kerak. Bir mashg‘ulot davomida yangi harakatlarni necha marotaba takrorlash kerakligini belgilab, yangi murakkab koordinasion vazifalarni bajarayotganda, nerv markazlari tez charchay boshlashini hisobga olish kerak. Charchoq yuzaga kelganda harakatlarni yaxshiroq, aniq takrorlashni talab qilish samarasiz va hatto zararlidir, chunki harakatlarni, ilgari yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf etmay, qat’iylik bilan takrorlash, aksincha, o‘sha xatolarni mustahkamlashga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Yangi harakatlarni bir mashg‘ulotning o‘zida uncha ko‘p bo‘lmagan miqdorda takrorlash yaxshi samara beradi. Mashg‘ulotlar orasida uzoq tanaffus qilmaslik zarur. Ikkinci bosqich – bu mukammal o‘rgatish bosqichi bo‘lib, bu bosqichning oldida turgan maqsad ilgari hosil qilingan ko‘nikmani aniq, butun qismlarigacha qayta ishlab chiqilgan malaka darajasiga yetkazishdan iborat. Dastlabki o‘rgatish bosqichida harakat texnikasi asoslari o‘rgatilgan bo‘lsa, bu bosqichda harakatning detallari aniqlanadi. Mukammal o‘rgatish bosqichi murakkab harakat akti alohida amallarining vaqt, fazo va kuch bilan bog‘liq xususiyatlarini aniqlash bilan tavsiflanadi. O‘rgatishning ikkinchi bosqichida quyidagi didaktik vazifalar hal etiladi:

- a) o‘rganilayotgan harakatlarning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish;
- b) o‘rganilayotgan harakat texnikasining qismlarini bilib va aniqlab olishga erishish;
- v) harakat amallarini to‘laligicha aniq, erkin va bir-biridan uzmay bajarishga erishishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bu bosqichda shug‘ullanuvchilarga o‘rganilayotgan mashqlarni qo‘llash qonuniyatları va shartlari

haqida to‘la bilim berish, texnika va natijalarni chuqur tahlil qilishni o‘rgatish zarurdir. Mukammal o‘rganish bosqichida takrorlashlar soni bir seriyada ham, butun mashg‘ulot davomida ham asta-sekin oshib boradi. Bu bosqichda mashg‘ulotlar orasida oraliqlarga yo‘l qo‘yiladi, bu o‘z navbatida o‘quv jarayoniga yangi material kiritish imkoniyatini beradi. Uchinchi bosqich – harakatlarni mustahkamlash va yanada takomillashtirish bosqichi bo‘lib, uning vazifasi o‘rgatilgan harakatni turli sharoitlarda qo‘llash va uni qayta qura bilishni o‘rgatishdan iborat. O‘rgatishning bu bosqichidagi xususiy vazifalar quyidagilardir: a) harakat texnikasini mustahkamlash bilan birga uning qismlarini yana ham aniq bajarishga o‘rgatish; b) harakat texnikasini shug‘ullanuvchining xususiyatiga qarab zarur darajada takomillashtirishga erishish; v) o‘zlashtirilgan harakatni har xil tashqi sharoitlarda va boshqa harakatlar bilan qo‘shilgan holda maqsadga muvofiq ravishda qo‘llashni ta’minlash; g) harakatlarni maksimal darajadagi jismoniy kuch sarf etgan holda mukammal egallashni ta’minlashdan iboratdir. O‘rganilgan harakatlarni qo‘llashda uni taktik tafakkur bilan tobora bog‘lash muhimdir. Bu, o‘z navbatida, taktik ko‘nikma va malakalarni (kuchlarni maqsadga muvofiq taqsimlash, sheriklar bilan birgalikda harakat qilish va hokazo) hosil qilish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu bosqichda ko‘p miqdordagi ko‘rgazmali vositalardan (maketlar, kinomateriallar, turli xil taktik vaziyatlarni aks ettiruvchi lavhalar, sxemalar) foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda nostandard o‘yin mashqlarini qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, murabbiylarning aksariyat qismi yosh voleybolchilarni tayyorlashda harakatlio‘yinlardan deyarli foydalanmas ekanlar. Bu muddat davomida tajriba guruhida jismoniy sifatlarni rivojlantirish maqsadida qo‘llanilgan harakatlio‘yinlar qayd etilgan sifatlarni tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keldi. Sinab ko‘rilgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan harakatli o‘yinlar an’anaviy standart mashqlardan ustun ekanligi, hamda harakatli o‘yinlar o‘zining emosional mohiyati tufayli mazkur sifatlarni samarali rivojlantirish qiymatiga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

REFERENCES

1. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
2. Rahmonova, S. (2023). YANGI O‘ZBEKİSTONDA MA’NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
3. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA’NAVİYATLI AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

4. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.
5. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).
6. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
7. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKİSTONDA MA'NAVİY-MADANIY ISLOHOTLAR. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
8. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLI AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
9. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.

Ibragimov Muslim Artikmashrabovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tinchlik va vatanparvarlik tushunchalarining inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni keng ko'rib chiqiladi. Tinchlik barqaror rivojlanish, ma'naviyat va milliy birlik garovi sifatida taqdim etiladi, vatanparvarlik esa har bir fuqaroning o'z Vataniga bo'lgan sadoqati va fidoyiligini ifodalaydi. Maqolada ushbu tushunchalarning huquqiy, siyosiy va ma'naviy jihatlari yoritilib, tinchlik va vatanparvarlikni saqlash va rivojlantirishning dolzarbligi hamda milliy qadriyatlarimizdagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Tinchlik, vatanparvarlik, qadryat, milliy birlik, ma'rifiy qadriyatlar, davlat siyosati, yoshlar tarbiyasi, fuqarolik burchi.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение понятий мир и патриотизм в жизни человека и развитии общества. Мир представлен как залог устойчивого развития, духовности и национального единства, а патриотизм - как проявление преданности и самоотверженности каждого гражданина своей Родине. В статье освещаются правовые, политические и духовные аспекты этих понятий, обсуждается актуальность сохранения и развития мира и патриотизма, а также их место в наших национальных ценностях.

Ключевые слова: Мир, патриотизм, духовность, национальное единство, духовно-нравственные ценности, государственная политика, воспитание молодежи, гражданский долг.

Abstract: This article broadly examines the role of peace and patriotism in human life and societal progress. Peace is presented as the guarantee of sustainable development, spirituality, and national unity, while patriotism represents the loyalty and dedication of each citizen to their Motherland. The article highlights the legal, political, and spiritual aspects of these concepts, discusses the urgency of preserving and developing peace and patriotism, as well as their place in our national values.

Keywords: Peace, patriotism, spirituality, national unity, spiritual and moral values, state policy, youth education, civic duty.

Kirish: Tinchlik va vatanparvarlik — jamiyat hayotidagi eng ulug' va beba ho qadriyatlar sirasiga kiradi. Har bir davlatning barqaror rivojlanishi va taraqqiyoti tinchlikni ta'minlash, aholi orasida milliy birdamlik va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liqdir. **Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Tinchlik – bu har qanday taraqqiyotning, yuksalishning asosi. Tinchlik va osoyishtalik bo'lmasa, hech qanday taraqqiyot haqida gapirish mumkin emas"** .

Tinchlik barqarorlikning garovi bo‘lib, har bir fuqaro uchun zaruriy omildir. Shu bilan birga, vatanparvarlik har bir insonning o‘z Vataniga bo‘lgan sadoqati va himoyasidir.¹

Tinchlikning tarixiy ildizlari va uning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni

Tinchlik insoniyat tarixida har doim asosiy ne’matlardan biri sifatida qadrlangan.

Tarixga nazar tashlasak, tinchlik va barqarorlik hukm surgan joyda ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot rivojlangan, mojarolar va urushlar esa taraqqiyotga jiddiy zarba bergen . Misol uchun, O‘rta Osiyodagi tinchlik davrlarida ilmiy va madaniy taraqqiyot yuksak cho‘qqilarga erishgan. Bunga o‘rta asrlarda yashab o‘tgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar faoliyati yaqqol misoldir .

Tinchlikning yo‘qligi esa jamiyatning rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lgan. **XX asrning birinchi yarmidagi jahon urushlari** ko‘plab mamlakatlarda vayronagarchilik, ocharchilik va qashshoqlik keltirib chiqardi . Shu jihatdan, tinchlik jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti ekanligini ko‘ramiz.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, tinchlik va osoyishtalikni ta’minalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. **Konstitutsiyamizda ham tinchlikni ta’minalash va uni mustahkamlash bo‘yicha alohida bandlar kiritilgan** . Bu davlatning ichki va tashqi siyosatida tinchlikning ustuvor ekanligini ifodalaydi²

Tinchlikning ma’naviy va ijtimoiy ahamiyati

Tinchlik nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minalaydi, balki insonning ma’naviy rivojlanishi uchun ham eng muhim shartlardan biridir. Tinchlik sharoitida insonlar o‘zlarining ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantira oladilar. Bugungi kunda global miqyosda ko‘plab mintaqalarda tinchlik va barqarorlik masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Dunyo miqyosidagi ziddiyatlar va urushlar insoniyat uchun ulkan talafotlar keltirayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasi esa tinchlikni saqlash, o‘zaro hurmat va milliy birdamlik tamoyillarini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilagan.

Tinchlikning ijtimoiy ahamiyati davlatning ichki va tashqi siyosatida, qonun hujjalarda va xalqaro munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida tinchlik, milliy birdamlik va davlat mustaqilligi saqlanishi lozimligi belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston xalqaro maydonda ham tinchlik tarafiori bo‘lib, turli xalqaro tashkilotlar doirasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash borasida muhim tashabbuslar bilan chiqmoqda.³

Tinchlik masalasi, ayniqsa, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida alohida e’tibor qaratilgan mavzularidan biridir. Mamlakat rahbariyati tomonidan olib borilayotgan

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2016.

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

islohotlar, xalq farovonligi va barqarorligini ta'minlashda tinchlik muhim o'rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, "Tinchlik va barqarorlik – har bir insonning hayoti, erkinligi va farovonligining asosi. Bizning vazifamiz – tinchlikni saqlash va uni mustahkamlash". Ushbu tamoyil asosida jamiyatda tinchlikni ta'minlash uchun davlat tomonidan keng ko'lamlidasturlar amalga oshirilmoqda.

Vatanparvarlik – milliy birdamlik va ma'naviy qadriyatlar asosidir

Vatanparvarlik tushunchasi o'z yurtiga sadoqatli bo'lish, uni sevish va himoya qilishga tayyorlik bilan belgilanadi. **Tarixiy manbalarda vatanparvarlikning turli ko'rinishlari** aks ettirilgan. Masalan, Amir Temur o'z davlatining mustahkamligi uchun tinchlik va adolatni asosiy tamoyil sifatida olgan. Shu bilan birga, uning vatanparvarlik ruhi orqali harbiy salohiyatini kuchaytirgani tarixdan ma'lum .

Bugungi O'zbekistonda ham vatanparvarlik tushunchasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. **Prezident Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, "Vatanparvarlik – bu har bir fuqaroning burchi bo'lib, u davlatning kuch-qudratidir"**⁴. Davlat tomonidan vatanparvarlikni targ'ib qilish va yosh avlod ongiga singdirish uchun ko'plab ta'lim va tarbiya dasturlari ishlab chiqilgan .

Xususan, maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga vatanparvarlik g'oyalari singdiriladi. O'quv dasturlarida vatanparvarlik mavzulari keng qamrovli bo'lib, ularning mazmuni milliy qadriyatlar, tarixiy voqealar asosida boyitilgan. Bu esa yosh avlodning o'z yurtiga bo'lgan sadoqatini yanada oshirishga xizmat qiladi .

Tinchlik va vatanparvarlikning xalqaro munosabatlardagi o'rni

Bugungi globallashuv davrida tinchlik va vatanparvarlik faqat bir davlat doirasida emas, balki xalqaro maydonda ham muhim ahamiyatga ega. **Xalqaro munosabatlarda tinchlikni ta'minlash, mojarolarni oldini olish va davlatlararo tinch-totuvlikni saqlash**⁵ eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ham o'z tashqi siyosatida tinchlik va barqarorlikni saqlashni ustuvor vazifa qilib olgan .

Davlatimizning Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. **Prezident Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi" degan so'zları** bu boradagi siyosatning qanchalik dolzarbligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT bilan hamkorligi orqali tinchlikparvarlik siyosati amalga oshirilmoqda .

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

⁵ Vohidov A. Ma'naviyat va Vatan. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010

Vatanparvarlik – milliy birlik va taraqqiyot garovi

Vatanparvarlik tushunchasi, avvalo, o‘z yurtini sevish, uni himoya qilish va uning taraqqiyoti uchun xizmat qilishni anglatadi. Vatanparvarlik faqat yurtini qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmay, balki xalqning birligi va jipsligini ta’minlashda, milliy qadriyatlarni asrashda va yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasi ham aynan vatanparvarlik g‘oyalariga asoslangan .

Bugungi kunda vatanparvarlik yoshlar tarbiyasida eng muhim ma’naviy-tarbiyaviy qadriyat sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga mustaqillik qadriyatlarini singdirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda, ta’lim tizimida vatanparvarlikka oid darslar, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar va ommaviy axborot vositalaridagi targ‘ibot-tashviqot ishlari yoshlarni ma’naviy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik – milliy birlikning asosi

Vatanparvarlik – bu insonning o‘z yurtiga, xalqiga bo‘lgan muhabbatidir. Har bir millatning rivojlanishi va taraqqiyoti uchun milliy birlik va vatanparvarlikning ahamiyati juda katta. **O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasida** ham aynan vatanparvarlik g‘oyasi markaziy o‘rin tutadi. Vatanparvarlik insonning faqatgina o‘z yurti va xalqiga bo‘lgan muhabbatini ifodalamaydi, balki bu tuyg‘u uni Vatan ravnaqi va taraqqiyoti uchun mas’uliyatni his qilishga undaydi.⁶

Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy mazmuni vatanparvarlikka asoslanadi. O‘zbek xalqining o‘z tarixi davomida vatanparvarlik g‘oyalari asosida saqlanib qolishi va mustahkam davlat qurishi bu qadriyatning milliy birdamlikka qo‘sghan hissasidan dalolat beradi. Bugungi kunda ham mamlakatimizda yoshlarga vatanparvarlik ruhida ta’lim berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Vatanparvarlik qadriyatlari davlat siyosatining barcha sohalarida, xususan, ta’lim va madaniyat tizimida keng targ‘ib qilinmoqda.

Misol uchun, O‘zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy iftixor hissini rivojlantirish maqsadida maktab va oliy o‘quv yurtlarida ko‘plab tadbirlar o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlar yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va ularda Vatan oldidagi mas’uliyat hissini oshiradi. Davlat rahbarining so‘zlariga ko‘ra, "Vatanparvarlik – millatning kelajagini belgilaydigan kuchdir". Shu nuqtai nazardan, vatanparvarlik bugungi kunda O‘zbekistonda milliy ma’naviyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi.⁷

⁶ Milliy istiqlol g‘oyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.

⁷ Karimov I.A. Tinchlik va milliy birlik – mustaqillik kafolati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

O‘zbekiston Respublikasining tinchlik va vatanparvarlik siyosati

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda tinchlik va vatanparvarlikni mustahkamlash bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirdi. O‘zbekiston Konstitutsiyasi va milliy qonunchilikda bu qadriyatlar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Milliy istiqlol g‘oyasi – bu xalqning ma’naviy tiklanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi". Shu sababli mamlakatda vatanparvarlikning rivojlanishi va yoshlarni ushbu ruhda tarbiyalash davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, davlat tinchlikni saqlash uchun xalqaro hamkorlikka katta e’tibor qaratadi. Xalqaro maydonda tinchlikni ta’minlash uchun BMT kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilgan siyosatning natijasida O‘zbekiston mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa

Tinchlik va vatanparvarlik – bu jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishining garovi bo‘lgan ulug‘ qadriyatlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi tinchlik va vatanparvarlik tamoyillariga asoslangan davlat siyosatini olib bormoqda. Ushbu qadriyatlar milliy birdamlik, barqarorlik va taraqqiyotning asosi bo‘lib, jamiyatning barcha qatlamlarida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, tinchlik va vatanparvarlikni mustahkamlash va ularga sadoqatli bo‘lish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.
4. Milliy istiqlol g‘oyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
5. Karimov I.A. Tinchlik va milliy birlik – mustaqillik kafolati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2016.
7. Vohidov A. Ma’naviyat va Vatan. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010

PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARINI TASNIFFLASH

Rustamova Zilolaxon Rustam qizi

Jizzax viloyati Zafarobod tumani 3-maktab

Ona tili va adabiyot fani katta oqituvchisi (2-toifa)

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik tadqiqot metodlarini tasniflash muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlash va qo'llash ta'lif-tarbiya jarayonini yaxshilashga yordam berishini ta'kidlanadi. Maqola ta'lif sohasidagi mutaxassislar, talabalar va tadqiqotchilar uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: pedagogik tadqiqot metodlari, ilmiy tadqiqot, predmet, obyekt, ...

Аннотация: В данной статье рассматривается классификация методов педагогического исследования. Также в статье подчеркивается, что правильный выбор и применение методов исследования способствует совершенствованию образовательного процесса. Статья будет полезна работникам образования, студентам и исследователям.

Ключевые слова: педагогические методы исследования, научное исследование, предмет, объект,...

Abstract: This article discusses the classification of pedagogical research methods. Also, the article emphasizes that the correct selection and application of research methods helps to improve the educational process. The article will be useful for educational professionals, students and researchers.

Keywords: pedagogical research methods, scientific research, subject, object, ...

Hozirgi jamiyat taraqqiyotining tez rivojlanishi, unda fanning ustivorligi davrida ilmiy tadqiqot metodlari o'rzaiga xos ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqot samaradorligi izlanuvchining metodik madaniyati, zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanishiga bog'liq.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini fanining predmeti va obyekti, mavzuning tarixiyligi, nazariyligi, amaliyligi yoki fanlararo tutash bandida ekanligiga asosan tasniflash mumkin. Predmeti va obyektiga asosan, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega muammoni hal etish qonuniyatlari, tamoyillari, omillarini argumentini aniqlash yo'llari, usullari.

Ma'lumki, ta'lif-tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab tarixiy taraqqiyot manbalariga ega. Tarixiy xotirasiz-kelajak yo'q asari pedagogika fanining ham metodologik yo'riqnomasidir. Xalqimizning boy pedagogik merosini o'rGANISHNING ilmiy-amaliy ahamiyati 2014 yil may oyida Samarqandda o'tkazilgan xalqaro konferensiyadagi O'rta asrlar Sharq allomalari va mutaffakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiyadagi roli va ahamiyati mavzusidagi

nutqi pedagogika tarixida yorqin sahifa bo ldi va pedagogik tadqiqotlarni dolzarb vazifasini belgilab berdi. |

Pedagogika tarixini o rganishning ilmiy tadqiqot metodlari: tarixiy manbalarni pedagogik tahlil etish; qadimgi yozuvlarni o rganish; ta limtarbiya tizimini aniqlash; mutafakkir olim va adiblarning asarlarini qiyosiy-pedagogik tahlil etish; natijaning olamshumul ahamiyati; natijaning bugungi kundagi ahamiyati; tarixiy manbalarni obyektiv tahlil etish; argumentli tavsiyalar ishlab chiqish kabilar. | | |

Albatta, pedagogik merosni bugungi kunda ta lim-tarbiya jarayonida qo llash samaradorligini aniqlashda sotsiometrik, test, eksperiment, ilmiy tadqiqot metodlaridan ham foydalaniladi. Sharq xalqlarida adabiyot (adabxulq, odob) ta limtarbiya borasida hayot darsligi sifatida qo llanilgan. Shuning uchun mumtoz adabiyot va pedagogika tarixi bir-biribilan uzvii bog liq. | | | | |

Fan hayotdan oldinda bo lishi, o z predmeti asosida kelajakni bashoratlashi, istiqbolli yo lni aniqlashi uchun xizmat qiladi. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni nazariy metodologik yo nalishida o ziga xos metodlar qo llaniladi. Metodologik tadqiqotlarda, avvalo, dialektik metodlardan foydalaniladi. Jamiyat taraqqiyotining konseptual asoslari ta lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash istiqbolini belgilashda qo l keladi. Masalan, ta lim mazmunini modernizatsiyalashda pedagogikaning umumiyligini, milliyligini, umuminsoniyligini, davr talabiga mosligi, fanlararo bog liqligi qonuniyatlaridan kelib chiqadigan emperik metodlar qo llaniladi. Yani, nazariy tadqiqotlar amaliyotda isbotlanishi, amaliy tajribalarni nazariy tahlil etilishi bir-biriga bog liqdir. | | | | | | | | | | | |

Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy abstraksiyalash, ideallash, fikriy eksperiment, ilmiy modellash, konsepsiya, mavhumlashtirish, induktiv, diduktiv kabi metodlar qo llaniladi. Ilmiy bilishda nazariy metodlar bilan amaliy metodlar birbirini to ldiradi. Shunin gdek, nazariy tadqiqotlarda analiz va sintez ilmiy bilish metodi keng qo llaniladi. Analiz pedagogik ilmiy tadqiqot obyektni qismlarga, turkumlarga bo lish asosida alohida tahlil etiladi. Sintez aksincha ilgari ajratilgan bo laklarni birlashtirish usulidir. Masalan, bir sinf yoki bir necha sinf o quvchilarini alohida alohida tarbiyalaganlik yoki fanlarni o zlashtirish darajasi holati o rganiladi va umumlashtirib xulosa chiqariladi. | | | | | | | |

Pedagogik nazariy tadqiqotlarda abstraksiyalashtirish, ideallashtirish tadqiqot metodi muhim o rin tutadi. Abstraksiyalashtirish pedagogik voqeylekni o ziga xos belgilari, xususiyatlarini fikran ajratish, tabaqlashtirish jarayonidir. Ideal obyekt hosil qilinadi u asosda real obyektlarni bilish uchun nazariy tafakkurdan foydalaniladi. | |

Pedagogik ilmiy tadqiqotda induktiv va diduktiv metodlar nazariy xulosalar chiqarishning muhim shartidir. Induksiya olamni hodisalarini sabablarini umumiyligini qonuniyatlarini to g risidagi gipoteza, deduksiya umumiyligini gipotezalardan natjalarni tajribaviy tekshirib ko rish, eksperimental tarzda ularni tasdiqlash, yoki rad etishga imkonini yaratadi. | | |

Gipoteza nazariy tadqiqotning shakli va metodi. Nazariy tadqiqotning maqsadi emperik (amaliy) tadqiqot davomida mavjud voqeylek natijalarini tushuntirish, bashorat qilish, tizimlashtirish qonuniyat va tamoyillarni aniqlashdan iborat. Gipoteza ikki maнnoda ishlataladi: muammoli gиoyalarni tushuntirib beruvchi va asoslovchi metod sifatida qonuniyat, tamoyil va nazariyalarni ifodalovchi yoл. Gipoteza metodining birinchi bosqichi nazariy tushuntirish lozim boлgan dalil; ikkanchi bosqichi, hodisalar sabablari va qonuniyatlarini toлgиrisidagi taxmin; uchinchi bosqichi, farazlardan eng ishonarlisisini tanlash, tekshirib koлrish; toлrtinchi bosqichi, asoslanmasa ilgari surilgan farazdan voz kechish; beshinchi bosqichi, eksperimental tekshirish.

Gipoteza metodi yangi qonunlar, prinsiplarini ochish va nazariyalarni yaratish jarayonida ilmiy tadqiqotning ijodiy xarakterini belgilaydi.

Pedagogik tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlash va qo'llash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilashga, yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga va ta'lim tizimini rivojlantirishga yordam beradi.

MEDIAMATN TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Ibrohimova Aziza Tohirovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar

Universiteti Bosma OAV jurnalistikasi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: “Ma'lumki, jahon tilshunosligida matnga dastlab asosan semantik va sintaktik nuqtai nazaridan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sosiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko'chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi”¹. Demak, inson ongi va tafakkuri ulkan kashfiyotlar, yangi ajablanarli tadqiqotlar bajarayotgan hozirgi davrda bu tushunchaga ham zamonaviy yondashuvni talab etmoqda. Chunki fikrning yozma ifodasi matnda aks etadi.

Kalit so'zlar: Kommunikativ rivojlanish, tadqiqot, global tarmoq.

Kommunikativ rivojlanish natijasida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida zamonaviy mass-media sohasida aniq, ko'rinarli o'zgarishlar yuz berdi. Unda sohaga oid yangi tushunchalar omma e'tiboriga tusha boshladi. Qiyosan o'rganilganda, bundan to'rt yil avval har bir amerikalik internetda kuniga 7,4 soat o'tirib, mediakontent bilan tanishgan bo'lsa, fillipinliklar bunga 9,6 soat, rossiyaliklar 3,6 soat, yurtimizda 0,6 soat ajratilgan². Har oyda o'zgarib turgan mazkur raqamlar bugungi kunda muhim axborotni kerak bo'lmaganidan ajratish, media orqali savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi.

OAVni o'rganuvchi muhim yo'nalishlardan biri bu – jurnalist asarlarini matn nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu yo'nalish XX asrning 70-80-yillarida paydo bo'ldi. Bu yo'nalish bo'yicha yaratilgan asarlar asosan matbuot matnlarining tahliliga bag'ishlangan³.

Ommaga taqdim etilgan xabar qisqa matnli bo'lsa-da, jamiyat madaniyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Matn haqida so'z borganda, bugungi kunga kelib Yu.M.Lotmanning bu boradagi nazariyasi alohida diqqat-e'tiborga loyiq. Olim fikri barcha mutaxassislar tomonidan tan olingan va ma'qullangan. Unga ko'ra, madaniyat – matnlar to'plami, yig'indisi yoxud “murakkab tuzilgan matn” sifatida talqin etiladi. Lotman

¹ Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: “Фан”, 2013.

²<http://fikr.uz/tag/медиа%20таълим%20муаммолари/>

³ Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. 50-бет.

ta'kidlashicha, matn "axborotni o'stiruvchi mexanizm". Zero, madaniyat makonini to'ldirib xilma-xil matnlar ichida axborot to'plash xususiyatiga ega, ya'ni madaniyat xotirasini (madaniy xotirani) o'zida ham mujassam etadi⁴.

Tadqiqot ishi mavzusi bo'yicha media olami haqida global tarmoqda qidiruv e'lon qilinganda esa qiziqarli holatga duch kelindi.

Global tarmoqdan "media" so'ziga qidiruv berilganda 19 900 000 ta, "mediatekst" so'zida 803 000 ta, "mediata'lim" terminiga 2000 ta havolalar taqdim etilgan bo'lsa, "mediamatn" tushunchasi o'zbek tadqiqotchilari tomonidan hali o'rganilmagani u bilan birorta ham material havola etilmaganidan ma'lum bo'ldi. Mazkur holat bizni ajablantirdi, biroq bu sohaga oid izlanishlar bajarilmagan, degani emas. Bugun mamlakatimizda mediasavodxonlik masalasida qator ishlar amalga oshirilib, global tarmoqning o'zida ham ko'plab materiallar berilmoqda, bu borada ijobjiy yoki salbiy tusdagi turli fikrlar ilgari surilmoqda. Bu yurtimizda mediasavodxonlik masalasiga katta ahamiyat berilishini anglatadi.

Demak, mediasavodxonlik bugun o'ta muhim masala ekan, jurnalistikada bu sohaga chuqurroq nazar tashlanishi, jamoatchilikni to'g'ri yo'naltira olish uchun mediamahsulotlarning taqdim etilishi, undagi foydalaniladigan vositalar haqida ham chuqurroq izlanishni taqozo etadi. Bu borada myediamatn tushunchasi o'rganilishi muhim bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

Darhaqiqat, an'anaviy OAV bo'lmish matbuot, radio, televideniyedan tashqari shiddat bilan rivojlanayotgan yagona axborot maydoni, butunjahon o'rgimchak to'ri – Internetning yuzaga kelishi o'ziga xos mediaoqimlar majmuidan iborat virtual makonning yaratilishiga olib keldi. Bularning barchasi so'zning shakllanishi va tarqalishi, uning qo'llanish xususiyatlari bevosita tildagi o'zgarishlarda o'z aksini topmay qolmadi. Nutqdan foydalanish ko'proq ommaviy kommunikatsiya sohasiga to'g'ri kelgani uchun undagi matnlar, ya'ni mediamatnlar tilimizning hozirgi paytdagi mavjudligini ta'minlovchi keng tarqalgan shakllardan biriga aylanib qolganligi barchaga ma'lum⁵.

Internet jurnalistikada bugun har bir yo'nalishga e'tibor qaratilishiga axborot olamidagi keskin o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Soniyalarda xabarning eski ma'lumotga aylanishi hodisasi yohud bir so'zning qidiruvi uchun taqdim etilayotgan o'nlab ma'lumotlar ilovasi kishini chalg'itib, yo'lidan adashtirishi ham hech gap emas. Oqim kuchliligidan uni tartibga solish, me'yorida ushlab turish, kuchli suv to'lqiniga qurilgan to'g'ondek tartibga keltirish ishi esa murakkab jarayonlardandir. Axborotni yo'lga solishda, albatta, birinchi navbatda uning matniga ahamiyat qaratiladi. Tadqiqot mavzusini o'rganishda birinchi galda matn va mediamatn terminlarini izohlash darkor.

⁴ Лотман Ю. М. Внутримыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М., 1988 . – С. 22.

⁵ Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. 56-бет.

“Matn (tekst) – muayyan axborotni berish, uzatish jarayonidagi belgilarning (til birliklarining, simvollarning) izchilligi, ketma-ket kelishi.”⁶ Mazkur ta’rif manbasi tilshunoslik sohasiga tegishli adabiyot sanaladi. Chunki bugungi kunda xorijiy olimlar qatori o‘zbek tilshunosligida ham matn tushunchasi tarixidan tortib, uning hozirgi davrdagi ahamiyati kyeng o‘rganilib kelinmoqda.

Shuningdek, gipermatn tushunchasi ham mavjud. Gipermatn atamasi Ted Nelson tomonidan 1965 yilda an’anaviy kitoblar, filmlar va nutqning chiziqli tuzilishini ifodalovchi hujjatlarni tasvirlash uchun kiritilgan. Gipermedia atamasi unga ma’no jihatidan yaqin, ammo u gipermatnda matnli bo‘lmagan tarkibiy qismlarning mavjudligini ta’kidlaydi, masalan, animatsiya, yozib olingan ovoz va video.

“Ma’lumki, jahon tilshunosligida matnga dastlab asosan semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sosiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendensiyasi kuchaydi. Matnga faqat til tizimi unsurlarining nutqqa ko‘chirilishi jarayoni mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan muloqot shakli, o‘zida muayyan intellekt egasining bilimlarini, lisoniy tafakkurini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi”⁷. Demak, inson ongi va tafakkuri ulkan kashfiyotlar, yangi ajablanarli tadqiqotlar bajarayotgan hozirgi davrda bu tushunchaga ham zamonaviy yondashuvni talab etmoqda. Chunki fikrning yozma ifodasi matnda aks etadi.

Jurnalistika sohasida ham matn so‘zi ko‘p qo‘llanmasa-da, usiz faoliyat olib borib bo‘lmaydi. Albatta, matn bu axborot degani, axborot jurnalistikaning asosiy o‘rganish ob’yektiidir.

So‘nggi texnikaviy taraqqiyot barcha sohalarda yangi terminlarning kashf etilishiga sabab bo‘lmoqda. Ulardan biri mediamatn tushunchasidir. Mazkur so‘z bugun mediatilshunoslikning asosiy o‘rganish ob’yekti sifatida qaralsa-da, internet olaminging vakili hisoblangan jurnalistlarga ham taalluqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

“Mediamatn” termini mass-media matni, jurnalist matni, publisistik matn, gazeta matni, telematn, reklama matni, PR-matn, internet matni kabi tushunchalar qatorida ommaviy kommunikatsiyaning bir bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, **media** (lotincha “**media**”, “**medium**” – vosita, yo‘sin, usul) ma’nosini anglatib, mediamatn tushunchasi esa biror axborot yetkazuvchi, qoyaga o‘yilgan suratdan boshlab, an’anaviy kitob, san’at asari va eng zamonaviy texnika rivojidagi vositalarni ham qamrab oladi. Biroq mediamatn tushunchasida ommaviy kommunikatsiyaning matn bilan bog‘liqligi uning asosiy jihatidir.

Olimlar tomonidan ushbu yo‘nalish o‘rganilganda, mediamatn tushunchasi chegarasi haqida ham mulohazalar qayd etiladi. Unga ko‘ra mediamatn ommaviy

⁶Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2013. – Б. 186.

⁷Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқики. – Тошкент: “Фан”, 2013.

kommunikatsiyaning uch yirik yo‘nalishi – jurnalistika, PR va reklama asosida ish yuritadi, degan fikrlar ilgari suriladi. Hozirgi kunda mazkur tunshuncha medialingvistika, mediastilistika, mediamadaniyat, mediata’lim atamalari qatorida tilshunoslik, falsafa va pedagogikaning yangi, zamonaviy yo‘nalishlari tarkibida o‘rganilayotgan masalalardan hamdir. Rus olimlaridan T.G.Dobrosklonskoy, N.B.Kirillovoy, G.Ya.Solganika, A.V.Fedorova va boshqalar mazkur masalani o‘z tadqiqotlarida qayd etib o‘tgan.

Til nazariyasi yo‘nalishidagi o‘zbek tadqiqotchilaridan D.Teshaboyevanig OAV tili bo‘yicha ilmiy ishida mediamatnlarning madaniyatga bog‘liqlik jihatlari juda keng asoslab berilgan.

Hozirgi paytda OAVni o‘rganishda kompleks yondashuv rivojlantirilmoqda. Bunday o‘quv-ilmiy yo‘nalish nemis tilida Medienwissenschaft, ingliz ilmiy an’analariga ko‘ra esa, medialinguistic – **medialingvistika** deb nomlanadi. Tilshunoslikdagi ushbu yangi yo‘nalish ostida mediamatnlarni o‘rganuvchi turli sohalar birlashtirildi. Ularning barchasi lisoniy va mediaviy xususiyatlarning dialektik yaxlitligini ifodalaydi va medianutqning uch miqyosida namoyon bo‘ladi: so‘zlardan iborat matn, videoqator yoki grafik tasvir miqyosi, ovoz jo‘rligi miqyosi (ovozli hamohanglik miqyosi).⁸

T. G.Dobrosklonskaya lisoniy va ekstralinguistik omillarni hisobga olgan holda, ommaviy axborot matnlarining barcha komponent va miqyoslari sinchiklab tahlil qilinishi haqida gapirib: “Myediamatnlarni yaratish va tarqatish usullari ularning lisoniy hajm xususiyatlari, funksional-janrli tasniflash, fonologik, sintagmatik va stilistik xususiyatlar, talqin etish xossalari, madaniy-xususiy belgilari, ideologik modellilik, pragmalisoniy qimmatiga bog‘liq” deydi⁹.

Yangi yo‘nalishning metodologik asoslari to‘g‘risida muallif quyidagilarni ta’kidlaydi: “Mediatilshunoslikning metodologik apparati ommaviy axborot matnlarini tadqiq etgan barcha yo‘nalishlarning yutuqlarini birlashtirgan. Bularga diskursiv tahlil, funksional stilistika va **lingvokulturologiya** (lisoniy madaniyat) kabilar kiradi”.¹⁰

OAV tilini **kulturologik yo‘nalishda** o‘rganish borasida madaniyat sohasiga oid matnlarni tadqiq etish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. OAV tilining **madaniy xususiyatlarini matn tushunchasi** bilan bog‘liq holda talqin qilish muhimdir¹¹.

Umuman olganda, matn tushunchasi OAV tilini o‘rganishdagi boshqa yo‘nalishlar nuqtai nazaridan ham tadqiq etilgan.

⁸Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. – Б. 51.

⁹Добросклонская Т. Г. Вопросы изучения медиа текстов: Опыт исследования современной английской медиа речи. – М.: МАКС Пресс, 2000. – С. 32.

¹⁰Ўша манба. – Б. 33.

¹¹Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. – Б. 52.

G.S. Melnikning fikricha, matn madaniyat mahsuli sifatida o‘zgarishsiz qotib qolgan hodisa emas, u turli ma’nolarni ifodalash bilan birga (bir ma’noli matnlar), yangi ma’nolarni yaratish, ya’ni kreativ-yaratuvchanlik funksiyasiga ham ega (ko‘p ma’noli matnlar). Bunday matnlar umumbashariy miqyosda muhim madaniy qimmatga molik. Olim ularda har qanday o‘quvchi o‘zi uchun biror yangilikni izlab topa olish mumkinligini ta’kidlaydi¹².

Mediamatn atamasi jurnalistik matn, PR-matn, publisistik matn, gazeta matni, tele- va radiomatn, reklama matni, internet matni tushunchalari qatoridan joy olib, uning vazifasi jurnalistika, PR va reklama sohasida ko‘p kuzatiladi. Mediamatnning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Mediaviylik. Bu mediavositalari yordamida biror axborotning uzatilishi.
2. Ommaviylik. Mediamatnni jamoatchilikni jalb etadigan darajada ko‘rsata bilish.
3. Tushunarlik. Matnga qo‘yiladigan asosiy talabga ko‘ra u barcha yoshdagi auditoriyaga tushunarli yozilishi kerak.
4. Ochiqlilik. Ya’ni bunda berilayotgan ma’lumotlar yashirin ma’noda qo’llanmasligi, mediamatn ifodalayotgan material jamoatchilikka ochiqchasiga ko‘rsatilishi ma’nosi anglashiladi.

Jurnalistikaning barcha tarmoqlarida matndan keng foydalilanadi. Bosma OAV turkumi gazeta va jurnallar qog‘oz va matnga asoslaniladi. Teleradiodasturlar taqdim etishda ham ssenariy matnda o‘z ifodasini topadi. Internet ham tasviriy, audiovizuallikda asosiy o‘rinda tursa-da, ularning izohini matnsiz bera olmaydi.

Mediamatn tushunchasi bilan bog‘liq xorijiy adabiyotlarda uning tarkibiy qismlariga turlicha yondashuvlar kuzatiladi. N.Qosimovaning sohaga oid adabiyotida esa “multimediaviy jurnalistika — bir mavzuga bag‘ishlangan, ammo bir nechta shakllar — foto, video, matn, infografika, interaktivni o‘z ichiga olgan mediamahsulotdir”, deb ta’riflanadi. Demak, mediamatn matn va biror ko‘rinish ma’nosini anglatar ekan, uni rasm, video, audio, grafika va boshqa vositalar ko‘magida o‘rganamiz. Bir tomondan, matnning mediaviyligi mana shu vositalar bilangina namoyon bo‘ladi.

Rasm (foto, surat). Bugun tasivriy vositalar ichida jurnalistik materiallarga rasm qo‘yish odatiy tusga aylangan. Xorijiy manbalardan Misr Arab Respublikasining “Al-ahrom” yoki AQSHning “The Times” nashrlarida beriladigan maqolalar axborot uzatayotgan muallif surati bilan chop etiladi. Bu gazetaning o‘ziga xosligi. Shu bilan birga, u muallifni auditoriyaga tanishtirish, manbaning ishonarliliginu ta’minalash va material uchun javobgarligi bo‘lgan insonni ko‘rsatish ma’nolarini ifodalaydi. Fotolarning internet tarmog‘ida aks etishi masalasi esa alohida katta tadqiqot sifatida yoritishga arziydi. Sababi bugun foto olami media makonida juda katta e’tibor

¹² Мельник Г.С., Тепяшина А.Н. Основы творческой деятельности журналиста. – М.: Питер., 2006. – С. 37.

qaratilayotgan masaladir. Tarmoqda hattoki biror matnni qidiruv tizimiga berishda uning surat bilan bog‘liq qismi alohida ruknda ifodalanadi.

Mediamatnda video vositasining o‘rnii ham katta. Media tushunchasi harakatlari tasvir ma’nosida ham izohlanadi. Videoko‘rinish esa uning shu ma’nosini to‘ldiradi. Bugun internet olamida video masalasida Youtube videobazasi katta qiziqishda kuzatiladi. U dunyo global tizimidagi jamoatchilik nazarida bo‘lgani bois ham daqiqasiga yangi axborotlarni jamlovchi videoaxborot vositasi bo‘lib xizmat qiladi. U ma’lumotlar videoarxivi sifatida ham baholanadi.

Mediamatnlarda videolarning berilishi deganda, bugun biz yurtdoshlarimiz tomonidan keng kuzatiladigan www.kun.uz hamda xorijiy muhim manbalardan www.nytimes.com sahifalarini keng kuzatdik. Tahlillar keyingi fasllarda batafsil yoritiladi.

Global tarmoqdan foydalanishda audioma’lumotlar bilan tanishish ham juda qulay yo‘l hisoblanadi. Uning qulayligi insonlarga yo‘lda ham eshitib keta olish imkonini berishidir. Audioaxborot faqat radio orqali eshitiladi, deb yuruvchilar ham bor oramizda. Ular internetdan audioyozuvlar, radioning global tarmoqdagi turi sifatida ommalashganidan xabarları yo‘q. Bugun mediaviylikda audioyozuvlar ham axborot manbasining ishonchlilik jihatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Grafika. Bu termin go‘yoki faqat matematika, informatika sohalariga taalluq bo‘lib tuyuladi. Biroq bugun matn bilan bog‘liq barcha ishlarda uning ahamiyati katta.

Hozirgi paytda zamonaviy ta’lim jarayonlarida ham jurnalistika kabi grafikadan keng foydalaniladi. Bu jurnalistikada infografika deb yuritiladi. Infografika lotincha informatio – bayon qilish, xabar berish; yunon tilidagi γραφικός – yozma, va γράφω – yozayapman so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma’lumotlar, bilim va axborotni grafika ko‘rinishda uzatish demakdir. Infografika nafaqat katta hajmdagi axborotni uzatish, balki predmetlar va faktlarning vaqt va makon birligidagi muvofiqligi va farqini ko‘rsatish imkoniga ham ega.¹³

Infografikadan foydalanish ham mediamatnning jalb etarli xususiyatini oshiradi. Unda ma’lumotlar tez anglashiladi hamda qiska vaqtida matn o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi.

Mediaviy jurnalistikating eng afzal jihatni bu interaktivlikdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot esa barchani qiziqtiradi, axborot bilan tanishishda qulay imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, bugungi kunda jurnalistikaga yangi termin sifatida kirib kelgan mediamatn tushunchasi xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida keng yoritilmoxda. Mamlakatimizda esa tilshunoslik yo‘nalishiga oid ayrim ishlarda qisqa tahlillarda namoyon bo‘lmoqda. Mediamatn tushunchasi bilan bog‘liq xorijiy tadqiqotlarda mediamatnlar rasm, video, audio va grafika asosida tayyorlanib, ommada berilayotgan axborotga katta qiziqish uyg‘otmoqda, ularning matnni tez o‘zlashtirilishiga sabab

bo‘lmoqda va albatta, interaktivlik xususiyatiga ko‘ra, jamoatchilik e’tiborini qozonilishiga ham xizmat qilmoqda. Mazkur masalaga keyingi fasllarda misollar orqali batafsil to‘xtalamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: “Фан”, 2013. ¹<http://fikr.uz/tag/медиа%20таълим%20муаммолари/>
2. Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида). Филол.ф.док. дисс., 2012. 50-бет.

INTERNET JURNALISTIKASIDA MEDIAMATNLARNING O'RNI. MEDIAMATNLARDA DIZAYN VA RANGLARNING AHAMIYATI

Ibrohimova Aziza Tohirovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar

Universiteti Bosma OAV jurnalistikasi yo'nalishi

4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Jurnalistikaning barcha tarmoqlarida matndan keng foydalaniladi. Bosma OAV turkumi gazeta va jurnallar qog'oz va matnga asoslaniladi. Teleradiodasturlar taqdim etishda ham ssenariy matnda o'z ifodasini topadi. Internet ham tasviriyl, audiovizuallikda asosiy o'rinda tursa-da, ularning izohini matnsiz bera olmaydi;

Kalit so'zlar: Dizayn, grafik dizayn, jadvallar, mediamatn.

Zamon kishilardan ma'lumotlar bilan ehtiyojkorlik bilan ishlashni talab etmoqda. Bugun rivojlanayotgan mamlakatlarda kuniga ma'lum soatlarda chop etilayotgan matbuot nashri yoki televizor va radioda yangi soat boshida berilayotgan axborot bir-birini to'ldirib voqealar rivoji bilan ommani tanishtirib bormoqda. Internet tarmog'idagi material bilan tanishish esa joy va vaqt masalasida imkon kengligi sabab jamoatchilikning asosiy kuzatadigan axborot makoniga aylanib ulgurdi.

Jurnalistikaga internetning ta'siri kuchli. Chunki ma'lumotlar internet tizimi orqali ma'lum bo'ladi, tanlash imkon, solishtirish jarayonlari ham u bilan kechadi. Internet jurnalistikasi esa auditoriyaga asosli manba bilan tanishish imkonini beradi.

Internet jurnalistikasida bosma nashrlarning elektron versiyasi o'rganilar ekan, u bosma nashr vazifalarini to'liq namoyon etadi, degan xulosa o'rinni. Shu bilan birga, veb-sayt qog'oz shakldan ham ko'pgina imkoniyatlari bilan farqlanadi. Har kuni yangilab boriladigan veb-sayt umume'tirof etilgan afzalliklarga ega bo'ladi:

Jamoatchilik bilan keng doimiy aloqada bo'lish imkoniyati. Internet odamlar bilan kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun, yiliga 365 kun aloqada bo'lish imkoniyatini beradi.

Kechikmay javob olish. Internet yuzaga kelayotgan masalalar bo'yicha yechimni topishda zudlik bilan ishga kirishishga yordam beradi.

Global auditoriya. Onlayn rejimida hech qanday geografik to'siqning o'zi yo'q.

Auditoriyani bilish. Internet interaktiv bo'lgani tufayli tashkilot va jamoatchilik o'rtasida doimiy ravishda o'zarlo aloqa o'rnatiladi. Bunda qandaydir tahminlarga xojat qolmaydi, chunki u auditoriyaga nima kerakligini tushunishga yordam beradi.

Ikkiyoqlama aloqa. An'anaviy ommaviy axborot vositalari passiv kuzatuvchilik rolini taklif etib, jamoatchilik ishtirokini o'quvchi va muxislarga cheklab qo'yadi.

Internet orqali esa auditoriya veb-sayt orqali tashkilot xodimlari bilan erkin muloqot qilishi, ya’ni faol o‘zaro aloqa o‘rnatilishi mumkin.

Rentabellik. Internetdan foydalanish uchun haq borgan sari arzonlashib bormoqda, demak, internet orqali muloqot qilishning iqtisodiy samaradorligi ortadi. Kanselyariya buyumlariga, materialni qog‘ozda bosib chiqarishga ehtiyoj qolmaydi. Ammo yutuq, avvalo, iqtisodiy emas, kommunikatsiya sohasida ro‘y beradi¹. Albatta, bularning barchasi o‘z ishini mukammal bajaruvchi veb sahifalarga taalluqli.

Internet nafaqat professional darajaga ko‘tarilish, balki dunyoning turli burchaklaridagi o‘quvchilarga yetib borish imkoniyati hamdir. Internet jurnalistikating rivojini birgina O‘zbekiston Respublikasi miqyosida oladigan bo‘lsak, yildan yilga ko‘payayotgan bosma OAVlarning veb-sahifalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Bugunga kelib O‘zbekiston bosma OAV va axborot-agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondining yordami bilan mamlakatimizda 93 ta gazeta va jurnallarning veb-ko‘rinishi², internet tarmog‘ining .uz domenida esa 4203 ta turli xil yo‘nalishdagi sayt va portallar faoliyat yuritmoqda³. Albatta, Internet tizimida va u orqali axborot taqdim etayotgan OAVda multimedialik, interaktivlik va tezkorlik birinchi darajaga ko‘tariladi, shuningdek, mazkur veb-sahifalarning o‘ziga xos dizayni, bosma matbuot qamrab ololmagan yangiliklarning berilishi ham o‘quvchilarni ularga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sohaga oid manbalar bilan tanishishda internet (onlayn) jurnalistika tushunchasiga multimedialiwy jurnalistika nazari bilan ham qarashlar kuzatiladi. N.Qosimova ishlarida ayni bu borada nazariy asos beriladi.

Multimedia – ingliz tilidagi “multi” va “media” co‘zlaridan olingan bo‘lib “ko‘p”, “bir necha” va “axborot uzatuvchi vocitalar” ma’nolarini bildiradi. “Multimedia” termini ilk marotaba 1965 yili Bob Goldshteyn tomonidan o‘z ichiga yorug‘lik, musiqa, kinoni olgan tadbirni tasvirlash uchun qo‘llagan. Albatta, multimedialiwy jurnalistika o‘quvchiga axborot bilan tanishishda turli xil elementlarni tanlash imkonini beradi. U faqatgina matnni o‘qishi yoki suratlarni ko‘rib axborot olishi mumkin. Multimediadan foydalanuvchi doimo faol bo‘lib, materilni faqatgina passiv o‘zlashtirmay, ularni mantiqiy bog‘lashga ham harakat qiladi.

“Yaxshi dizayn yangilik va boshqa turdagи axborot materiallarining oqilona hamda yoqimli tarzda uzatilishini ta’minlaydi. Dizayn – bu jarayon, tayyor mahsulot emas, shu bois u turli bachkanalikdan xoli va sezilmaydigan darajada bo‘lishi kerak”, deb ta’kidlaydi dunyoning mashhur dizaynerlaridan biri Mario Garsia.⁴ Darqahiqt, grafik dizayn nashrga bezak beribgina qolmay, dizaynerning maqsad va g‘oyalarini vizuallashtirib, auditoriya bilan aloqa o‘rnatishga xizmat qiladi.

¹ Косимова Н., Бобоҷонова Г., Исламова Л. Аҳборот хизмати: жамоатчилик билан самарали мулокот. Бирлашган Миллатлар Ташиқилотининг Таракқиёт дастури (БМТТД), – Т., 2012. – Б. 90.

² ОАВларни шакллантириш йўлида. www.mmf.uz. 4.04.2008

³ www.uz. 11.11. 2010 йил.

⁴ Мутовкин Л.А. Дизайн и имидж газеты(курс лекций).– ОМСК, 2005. – С. 2.

Dizayn elementlaridan samarali foydalanish, ularni nashr konsepsiysi bilan uyg‘unligini ta’minlash, chop etiladigan material bilan illyustratsiyalarning o‘zaro munosabati, sahifalashning eng muqobil turini tanlash va bu orqali o‘quvchi e’tiborini jalg qilish kabilar dunyo bo‘ylab minglab dizaynerlar hamda tahririyatning ijodiy guruhini o‘ylantiruvchi asosiy masalalar bo‘lib, ushbu sohada ko‘plab mutaxassislar tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Dizayn inglizcha “design” so‘zidan olingan bo‘lib, “chizmoq”, “o‘ylamoq”, “loyihalamoq”, “rasm”, “reja”, “chizma” degan ma’nolarni anglatadi. Dizayn narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirishga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi atama.⁵ Dizayn so‘zi XVI asrda Yevropada paydo bo‘lgan. Oksford lug‘atida ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: “inson tomonidan o‘ylangan biror narsaning rejasi yoki sxemasi bo‘lib, yaratilayotgan san’at asarining ilk chizmalari”. 1849 yilda Angliyada ilk bora davlat arbobi, rassom Genri Koulum tomonidan «Journal of Design» nomli jurnal chop etildi. Ya’ni dizayn atamasi bиринчи marta nashr nomida ishlatilib, uning ilk sonlarida ushbu tushunchaga ko‘plab ta’riflar berildi.⁶ XX asrga kelib dizayn tushunchasi ishlab chiqarish va sanoat sohalarida qo‘llanila boshladi. Keyinchalik har bir sohada atamaning ahamiyati ortib, uning turlari ko‘payib bordi. Ulardan biri bugungi kunda eng ko‘p qo‘llaniladigan grafik dizayn tushunchasi hisoblanadi.

Grafik dizayn – bu o‘ziga estetik mas’uliyatni olish orqali vizual-axboriy mahsulot yaratishdir. Uning asosiy maqsadi tasvirlar orqali ma’lum axborotga auditorianing e’tiborini qaratishdir. Richard Xollis ta’kidlaganidek, grafik dizayn – bu o‘ylangan g‘oyaga asosan belgi, chiziqlar yaratish hamda ularning kerakli maydonda joylashuvini ta’minlashdir.⁷

Jurnalistika sohasida, ya’ni bosma nashrlar va ularning elektron variantlarining dizayni bilan faoliyat olib borayotganda, aynan grafik dizayndan foydalaniladi. U nashrlarga nafaqat bezak beradi, balki axboriy vazifani ham bajaradi. OAV orqali uzatilayotgan ma’lumotni vizuallashtirish uchun mo‘ljallangan dizaynning ushbu turi quyidagi tendensiyalar asosida rivojlandi:

- Ommaviy axborotlarni uzatish va ularni vizualligini ta’minlovchi grafik dizaynning shakllanishi;
- Grafik dizayn ob’yektlarini ommaviy tarzda uzatilishiga shart-sharoitlarning yuzaga kelishi;
- Iqtisodiy taraqqiyot natijasida jamiyatda dizayn turlarining paydo bo‘lishi;
- Grafik dizayn sir-asrorlarini o‘rgatuvchi maktab, o‘quv maskanlarining tashkil etilishi;

⁵ <http://www.wikipedia.org/wiki/Дизайн>

⁶ Лавреньев А.Н. История дизайна.– М.:Гардарики, 2007.–С.9.

⁷ Ньюарк К. Что такое графический дизайн? –М.: Астрель, 2005.–С.12.

- Soha, kasb sifatida namoyon bo‘lishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar.⁸

Grafik dizaynning ilk ko‘rinishlari sifatida paleolit davriga tegishli toshlardagi hayvonlar, ularning o‘zaro janglarini aks ettirgan rasmlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bosma nashrlarda ushbu dizayn turining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bevosita Germaniyada 1440 yilda Iogan Gutenberg tomonidan ixtiro qilingan bosma dastgoh bilan bog‘liq. Bu ixtiro tufayli nashrlardagi yozuv ya’ni shriftlarning bir xilligiga erishildi. Shuningdek, uning bosma to‘r bo‘yicha ixtirosi harflarni turli modullaridan foydalanish imkoniyatini yaratib berdi. XIX asrda Yevropa mamlakatlarida sanoat, savdo-sotiq sohalarining taraqqiyoti natijasida raqobat kuchaydi. Keyinchalik bu sohalarda hamda jurnalistika faoliyatida grafik dizaynga bo‘lgan ehtiyoj ortdi.⁹ Demak, texnika-texnologiya taraqqiyoti grafik dizayn rivojlanishining asosi hisoblanadi. Dizayn so‘zining ma’nosi ko‘p qirrali bo‘lib, u “tuzish”, “modellashtirish”, “loyihalash” kabi ma’nolarni anglatadi. U ob’yekt va g‘oyalar bilan ishslash demakdir.¹⁰

Dizaynlash jarayonida quyidagi tushunchalarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) Balans (muvozanat)
- 2) Kontrast (solishtirish)
- 3) Ritm
- 4) Jipslashuv (birlashuv)
- 5) Garmoniya (o‘zaro moslik).¹¹

Balans tushunchasida tahrirchi savlavha bilan sarlavhaning, shrift bilan shriftning, rasm bilan rasmning va boshqalarning tashqi ko‘rinishida bir-birlari bilan muvozanatni saqlab turishni ta’minlaydi. Bular bir-birlariga mos bo‘lishi lozim. Misol uchun sahifadagi asosiy matnda bir xil o‘lchamdagи shriftlar ishlatilishi maqsadga muvofikdir.

Kontrastni ishlatish orqali tahrirchi sahifadagi har bir maqola yoki materialni bir-birlaridan ayrim xususiyatlari bilan ajralib turishiga erishishga harakat qiladi. Bunda u sarlavhalarni, rasmlarni, ranglarni va bo‘sh joylarni o‘ziga xos tarzda rejalashtirishi kerak. Misol uchun, tahrirchi sarlavha shriftlarining ko‘rinishini o‘zgartirishi (qalin, kursiv yoki oddiy), kolonkalarni kengaytirish yoki toraytirish, fonga rang berish, rasmlarning vertikal yoki gorizontal joylashtirilishi orqali erishish mumkin.

⁸ Лакшми Б. Дизайн и время. – М.: Артродник, 2006. – С.10.

⁹ Лакшми Б. Дизайн и время.– М.: Артродник, 2006. – С.7-12.

¹⁰ <http://www.wikipedia.org/wiki/Дизайн>

¹¹ Дадаонов А.О. Компьютерда саҳифалаш дизайнни (маъруза матни).–Т.,2010.–Б. 8.

Sahifada ritm o‘quvchini biror ob’yektdan ikkinchisiga mantiqiy o‘tishni ta’minlashi lozim, ya’ni sahifada to‘g‘ri ketma-ketlik saqlanishi kerak. Masalan, sarlavha → asosiy matn → rasm yoki tablisa.

Jipslashuv tushunchasida esa har bir sahifaning faqat bitta bo‘limga taaluqli bo‘lishi talab qilinadi. Biror sahifaning ikki xildagi mavzularni yoritishi nashrning nonprofessional verstka qilinishidan darakdir, shuningdek, bu o‘quvchini zeriktiradi va sahifaning chiroyini buzadi.

Garmoniya konsepsiysi nashrning doimiy o‘zgarib borish holatini ta’minlab turadi. Uning ichidagi materiallarning mazmuniga qarab tashqi ko‘rinishida ba’zi kichik o‘zgarishlar ham bo‘lib turishi mumkin.¹²

Aytish joizki, har qanday nashrning dizaynni yaratayotganda undagi vositalarning psixologik ahamiyati va ta’sirini hisobga olish juda muhim. Ayniqsa, ranglar inson ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir hayotimiz davomida biz bilan yonma-yon bo‘ladi. Faqat yoshimizga qarab ranglarga bo‘lgan talabimiz o‘zgarib boradi. Shrift va fon rangining uyg‘un bo‘lishi, matnni o‘qishni osonlashtiradi, o‘quvchini jalb etishda yordam beradi.

Sahifalarda fon va matn shrifti rangi umumiy dizaynni shakllantirishda muhimdir. G. Knabe o‘zining kitobida fon va shrift yoki ob’yekt rangining moslashuvchanlik xususiyatiga ko‘ra quyidagilarni aniqlagan:¹³

| Fon rangi | Ob’yekt (shrift) rangi | |
|-----------|----------------------------|----------------------------------|
| | Yaxshi moslashadi | Mos emas |
| qora | Oq, olov rang, qizil | Ko‘k , siyoh rang, yashil, sariq |
| oq | Qora, ko‘k, qizil, yashil | Hamma rangning och(hira) tonlari |
| qizil | Qora, oq, sariq, olov rang | Ko‘k, yashil, siyoh rang |
| Olov rang | Qora, oq, qizil, sariq | Yashil, ko‘k, havo rang, oq |

¹² Дадаходонов А.О. Компьютерда саҳифалаш дизайнни (маъзуза матни). –Т.,2010.–Б. 8.

¹³Кнабе Г.А. Энциклопедия дизайнера печатной продукции. Профессиональная работа.–М.: Издательский дом Вильямс, 2006. (манба: <http://www.hi-edu.ru/e-books>)

| | | |
|------------|-----------------------------------------|--------------------------------------|
| sariq | Qora , yashil, ko'k, qizil Havo rang | Hamma rangning och(hira) ranglari |
| yashil | Oq, qizil, havo rang | Qora, sariq, ko'k, siyoh rang |
| Havo rang | Qora, oq, qizil, sariq | Yashil, siyoh rang |
| ko'k | Sariq, qizil, olov rang, oq | Qora, yashil |
| Siyoh rang | Oq, qizil, olov rang, sariq | Qora, yashil, havo rang, ko'k |

1-jadval.

G.Knabe ta'kidlaganidek, iliq ranglar sovuq rangga qaraganda o'quvchiga yaqinroq bo'ladi. Agar ma'lum ob'yektga auditoriya e'tiborini tortishni xohlasangiz, uni och fonda, agar kompozisiya ichiga sho'ng'ishini xohlasangiz to'q ranglarda bering.¹⁴ Shuning uchun ham umumiyl fonda sovuq hamda to'q ranglardan foydalanish, o'quvchi e'tiborini kerakli ob'yektga qaratishga yordam beradi.

1-bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- Mediamatn atamasi jurnalistik matn, PR-matn, publisistik matn, gazeta matni, tele- va radiomatn, reklama matni, internet matni tushunchalari qatoridan joy olib, uning vazifasi jurnalistika, PR va ryeklama sohasida ko'p kuzatiladi;
- Mediamatnning asosiy vazifalari mediaviylik, ommaviylik, tushunarlik, ochiqlilik kabilardan iborat;
- Jurnalistikaning barcha tarmoqlarida matndan keng foydalaniladi. Bosma OAV turkumi gazeta va jurnallar qog'oz va matnga asoslaniladi. Teleradiodasturlar taqdim etishda ham ssenariy matnda o'z ifodasini topadi. Internet ham tasviriy, audiovizuallikda asosiy o'rinda tursa-da, ularning izohini matnsiz bera olmaydi;

¹⁴ Кнабе Г.А. Энциклопедия дизайнера печатной продукции. Профессиональная работа.–М.: Издательский дом Вильямс, 2006. (манба: <http://www.hi-edu.ru/e-books>)

- Mediamatnning ilmiy adabiyotlardagi tahlillari o‘rganilganda, bu tushunchaning mamlakatimizda tilshunoslik yo‘nalishiga oid ayrim ishlarda qisqa tahlillarda namoyon bo‘layotgani kuzatildi;
- Mediamatn tushunchasi bilan bog‘liq xorijiy tadqiqotlarda mediamatnlar rasm, video, audio va grafika asosida tayyorlanib, ommada berilayotgan axborotga katta qiziqish uyg‘otmoqda, ularning matnni tez o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lmoqda;
- Dizayn elementlaridan samarali foydalanish, ularni nashr konsepsiysi bilan uyg‘unligini ta’minlash, chop etiladigan material bilan illyustratsiyalarning o‘zaro munosabati, sahifalashning eng muqobil turini tanlash va bu orqali o‘quvchi e’tiborini jalg qilish kabilalar dunyo bo‘ylab minglab dizaynerlar hamda tahririyatning ijodiy guruhini o‘ylantiruvchi asosiy masalalardir;
- Dizaynlash jarayonida balans (muvozanat), kontrast (solishtirish), ritm, jipslashuv (birlashuv), garmoniya (o‘zaro moslik) tushunchalariga asoslanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимова Н., Бобоҷонова Г., Исламова Л. Ахборот хизмати: жамоатчилик билан самарали мулоқот. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараққиёт дастури (БМТТД), – Т., 2012. – Б. 90.
2. ОАВларни шакллантириш йўлида. www.mmf.uz. 4.04.2008
3. www.uz. 11.11. 2010 йил.

**ONA TILI MASHG‘ULOTLARIDA
“BLOOM TAKSONOMIYASI” DAN FOYDALANISH**

Komilova Lola Nasilloyevna
ToshDO ‘TA Utayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta’limida o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanish metodikasini tadqiq qilishning dolzarbliji hamda Blum taksonomiyasini asosida olmosh so‘z turkumi mavzusini o‘qitishda foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyalari, zamonaviy ta’lim, Blum taksonomiyasi, bilish, tushunish, qo‘llash, analiz, sintez, baholash.

Ta’lim - bu o‘quvchini o‘qitish yoki ma’lum bir mavzuni o‘rganish jarayonidir. Maqsad - bu odamlarning rivojlanishi, bilimlari, ta’sirchanligi, axloqiy va ijtimoiy imkoniyatlarini yaxshilash. Bizning jamiyatimizda ta’lim bir-biridan bilimlarni uzatish va biz o‘zimiz yashaydigan muhitga moslashishimiz va rivojlanishimiz uchun juda muhimdir. Shunday qilib odamlar jamiyatni oldinga siljitudigan va turg‘un bo‘lmagan bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Shunday ekan ona tili dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda biz mavzudan kelib chiqib turli metodlardan foydalanamiz. Bugungi kunda Respublika ijtimoiy hayotiga keng ko‘lamli va shiddatli tezlikdagi axborotlar oqimi kirib kelmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzARB muammolardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’limning maqsadi faqat bilim berish emas, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish. Darhaqiqat, kam vaqt sarflab, sifatli natijaga erishishni talab etayotgan hozirgi tezkor zamon ta’limdan faqatgina bilimli emas, balki bilimni hayotda qo‘llay oladigan ijodkor, tashabbuskor, moslashuvchan avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida bir qancha muhim vazifalarni kun tartibiga chiqarmoqda. Shuning uchun ham ta’lim turlari: muktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim hamda oliy ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik qaytadan tahliliy o‘rganib chiqilib, ta’lim turlarining ona tili ta’limidan maqsadi konkretlashtirilib, aniqlashtirilib olinmoqda [Mengliyev, 2017:8-9]. Jahonda til o‘qitish metodikasida XX asrning o‘rtalaridan boshlab kishilar o‘rtasidagi muloqot quroli bo‘lgan tilni o‘qitish va uni baholashga alohida e’tibor berila boshlangan. 70-yillarga kelib tilni o‘rganish va egallash darajasini baholash bilan shug‘ullanuvchi ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilgan. Buyuk Britaniyada IELTS, Amerika Qo‘shma Shtatlarida TOEFL va Yevropada CEFR kabi test tizimlari ingliz tili va boshqa roman-german tillarini ikkinchi til sifatida egallash darajasini baholashga

xizmat qilayotgan bo'lsa, Amerika Qo'shma Shtatlarida SAT, Buyuk Britaniyada GCSE, A-lavel, Rossiya Federatsiyasida YeGE kabi baholash tizimlari ona tilidan nutqiy malakalarini egallash darajasini baholab kelmoqda[Abdurayimov,2022:13].

Ta'lim-tarbiya jarayoniga, xususan, til ta'limiga ham pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.Bu vazifani to'liq bajarish maqsadida, eng avvalo, olimlar hamda mакtablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida ishlayotgan o'qituvchilar hamkorligida bir necha muammolarni yechish lozim. Jumladan:

- yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyatini aniqlash va uning nazariy asoslarini yaratish;
- uning prinsiplarini ishlab chiqish;
- pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashning samarali yo'llarini tanlash va hokazo.

Ta'kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta'limning yangi modelini yaratish taqozo qilinadi. Modelni amaliyatga tatbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida "o'quv-tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta'minlash" uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash. Ta'lim texnologiya elementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'lim oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqida guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida ta'lim oluvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish kabi usullar mustaqil o'r ganilgan, tahlil va muhokama qilingan ma'lumotlarning 90 foizini xotirada saqlanashi uchun imkon beradi[Usmonboyeva,2005:30].

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsat-kichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa ularning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Har qanday ta'limning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir. Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotdagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv (bilishga oid) sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Xuddi shu maqsadda jahon pedagogikasida fundamental

izlanishlar natijasida o‘quv maqsadlari taksonomiyasi vujudga kelgan. U o‘quv maqsadlarini belgilashning eng ilg‘or usuli bo‘lib e’tirof etilgan.

Biz yuqorida keltirilgan muammolardan kelib chiqib ushbu maqolada ona tili darslarini o‘quv maqsadalari taksonomiyasi (B.Bloom taksonomiyasi)dan foydalanib o‘qitishning bir qancha metod va usullarini tavsiya etishni maqsad qilib qo‘ydik. Kognitiv sohaning eng quyi bosqichi “bilim” deb ataladi[Bloom,1971:232]. Bu kimningdir faktlar va prinsiplarni eslashi demakdir. Bu bosqichda shaxs o‘zlashtirgan bilimlarini eslashi, ularni nomlashi va aytib berishi mumkin. Ma’lumki, o‘quv maqsadlarini mashg‘ulotning didaktik maqsadlariga muvofiq belgilanishi ta’lim samaradorligini aniqlash va kamchiliklarga barham berilishiga zamin tayyorlaydi. Har bir fan o‘qituvchisi o‘rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quv maqsadlarini aniqlashi va shu asosda mashg‘ulotlarni tashkil etishi lozim.

Endi esa ona tili darslarida olmosh so‘z turkumiga oid mavzularni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini B.Bloom takonomiyasidan foydalanib aniqlash yuzasidan namuna berib o‘tamiz. Buning uchun ko‘p javobli va nostandard testlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1. “Bilish” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i:

Berilgan olmoshlarning ma’no turlarini aniqlang va jadvalga joylashtiring.

1)kimdir, 2) har bir, 3)hech qaysi, 4)o ‘z-o ‘zidan, 5)men, 6) o ‘sha, 7)qachon, 8)ana 9)birov, 10)hamma, 11)jami, 12)biz-siz, 13)hech kim, 14)necha 15) o ‘zim

| Kishilik olmoshi | Ko‘rsatish olmoshi | O‘zlik olmoshi | So‘roq olmoshi | Gumon olmoshi | Belgilash olmoshi | Bo‘lishsizlik olmoshi |
|---------------------|-----------------------|-------------------|-------------------|------------------|----------------------|--------------------------|
| 5,12 | 6,8 | 4,15 | 7,14 | 1,9 | 2,10,11 | 3,13 |

O‘quvchi berilgan bunday nostandard test topshirig‘i bilan ishslash jarayonida mavzu yuzasidan dalillar va atamalrni , turkumlashni, umumiy tushuncha va nazariyalarni bilishi namoyon bo‘ladi.

2.”Tushunish”ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandard test topshiriqlari:

Olmoshning tuzilishiga ko‘ra turini ta’riflari bilan juftlang.

| | | | |
|----|--------------|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Sodda olmosh | A | Bunday tuzilishda ikkita asosning qo‘shilishidan yangi olmosh hosil qilinadi. Ko‘pincha qismlari ajratib yoziladi. (birov |
|----|--------------|---|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

| | | | | |
|--------|-----------------|-----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| | | | gumon olmoshi bundan mustasno) | |
| 2. | Qo'shma olmosh | B | Bu tuzilish shakli faqat bir so'zdan, ya'ni asosdan iborat bo'ladi. | |
| 3. | Juft olmosh | C | Bu tuzilishda bir so'zning aynan takrori yoki ikkinchi qismining tovush o'zgarishidan hosil bo'ladi va qismlari chiziqcha yordamida yoziladi. | |
| 4. | Takroriy olmosh | D | Bu tuzilishda ikki xil olmosh bir-birini taqazo qilib qismlari chiziqcha bilan yoziladi. | |
| Javob: | 1-B | 2-A | 3-D | 4-C |

Keltirilgan ko'p jadvalli test bilan ishlash natijasida o'quvchilar mavzuni izohlash, tushuntirish, olingan natijalarni yoyish va tatbiq etish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

3."Bilimlarni amalda qo'llash" o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalilaniladigan nostandard test topshiriqlari:

Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlarini ajrating va mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga kiriting.

- 1) *men-sen*, 2)*o'zi*, 3)*ana-mana*, 4) *barcha-barcha*, 5) *uncha-muncha*, 6)*butun*,
7)*mana shu*, 8) *bir kishi*

| | |
|----------|-----|
| Sodda | 2,6 |
| Qo'shma | 7,8 |
| Juft | 1,3 |
| Takroriy | 4,5 |

Yuqoridaq nostandard testga javob topish natijasida o'quvchi mavzu yuzasidan o'rgangan tushunchalar hamda qoidalarini boshqa vaziyat va topshiriqlarni hal qilishda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. "Tahlil"ga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalilaniladigan nostandard test topshirig'i:

Quyidagi fikrlarning qaysilari to'g'ri?

- A. Olmoshlar ma'no turiga ko'ra 7 ga b'linadi.
B.Olmosh so'z turkumi tuzilishiga ko'ra 2 ga bo'linadi.

C. Har kim, hamma, barcha olmoshlari ma’no turiga ko‘ra kishilik olmoshi hisoblanadi.

D. Olmosh so‘z turkumi tuzilishiga ko‘ra 4 ga bo‘linadi.

Javob: A va D

Yuqoridagi topshiriqni bajarish natijasida o‘quvchi mavzuni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasi va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tuzish, qismlarni tahlil qilish, yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillari bilan tanishadi.

5. “Sintezlash” o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholash da foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i.

Quyida berilgan (*so‘roq olmoshlari va bir so‘zi yordamida hosil qilinadigan*) qo‘shma olmoshlarga diqqat qilib ma’no turlari jadvaliga joylashtiring.

1) *har bir*, 2) *hech bir*, 3) *bir kishi*, 4) *nimadir*, 5) *har qanday*, 6) *hech qaysi*, 7) *allakim*, 8) *har kim*, 9) *hech qanday*

Javobi:

| Gumon olmoshi | Belgilash olmoshi | Bo‘shsizlik olmoshi |
|---------------|-------------------|---------------------|
| 3,4,7 | 1,5,8 | 2,6,9 |

Sintezlashga oid yuqoridagiga o‘xhash topshiriqni bajarish asosida o‘quvchi berilganlarga asoslanib yaxlit qiyofa yaratish, materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholash, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda tajriba o‘tkazish rejasini tuzish, u yoki bu muammoni hal etish rejasini tuzishda o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan hodisalarining umumiyligini, bog‘liqlik omilini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

6. “Xulosa yasash” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i:

1. Quyidagi ko‘rsatish olmoshlarini tuzilish jihatdan jadvalga moslab kiriting.

| | | | |
|----|-----------------|----------|-------------------------------|
| 1. | <i>Sodda</i> | <i>A</i> | <i>Shu-shu, o‘sha-o‘sha</i> |
| 2. | <i>Qo‘shma</i> | <i>B</i> | <i>Ana-mana, u-bu, ul-bul</i> |
| 3. | <i>Juft</i> | <i>C</i> | <i>Ana shu, mana bu</i> |
| 4. | <i>Takroriy</i> | <i>D</i> | <i>Ana, u, shu</i> |

Javob:

| | | | |
|------------|------------|------------|------------|
| <i>1.D</i> | <i>2.C</i> | <i>3.B</i> | <i>4.A</i> |
|------------|------------|------------|------------|

Baholashga oid, ya’ni maqsadga muvofiq holda qo‘llanilgan material yoki uslublarni baholash uchun tuzilgan testlar bilan ishslash asnosida o‘quvchi o‘z bilimlarini ichki va tashqi mezonlar asosida baholashni o‘rganadi.

Xulosa shuki, ta'lim-tarbiya jarayonida Bloom taksonomiyasiga binoan o'quv maqsadlarining aniqlanishi, o'quvchilarning o'quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandard test topshiriqlaridan foydalanish, nazorat-ning haqqoniyligi, keng qamrovililagini ta'minlaydi. Barcha fanlar qatori ona tili darslarida ham ta'lim oluvchilarga ma'lumot berishda ta'limning ilg'or tajribalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va turli interfaol metodlar asosida ta'lim berish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Qolaversa, zamonaviy ta'lim berishda o'qituvchi kasb mahoratining turli qirralarini namoyon etishi ham bu davr talabidir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. –Toshkent: 1997.
2. Abduraimov Sh.S. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. (PhD)Dis.T.: -2022
3. Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of StudentLearning. N - Y., McGraw-Hill, 1971. – s-232. 4.Ismoilova I. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. -Toshkent: 2002.
5. Mengliev B. Ona tili ta'limi: Davr talabi va ijtimoiy zarurat. "Ma'rifat"gazetasি, 2017 yil, 22-fevral soni, 8-9-b. 6.
- Mengliev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. –Toshkent: 2014. 7.
- Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z.,Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: 2007. 8. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyat. –Toshkent:"Fan", 2005.

Toshpulatova Nilufar Toshmurot qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

toshpulatovanilufar99@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasi va uning shakllari, shuningdek turizm sohasining hozirgi kundagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, shakl, xalqaro, sayohat, sayyoh, Amir Temur, bilim, mamlakat, O'zbek turizm milliy kompaniyasi, turistik yo'naliш, klassik yo'naliш.

ДОСТУП К ТУРИЗМУ

Аннотация: В данной статье рассматривается индустрия туризма и ее формы, а также значение туристической отрасли сегодня.

Ключевые слова: Туризм, форма, международный, путешествие, турист, Амир Темур, знания, страна, Узбекская туристическая национальная компания, туристический маршрут, классический маршрут.

ACCESS TO TOURISM

Abstract: This article discusses the tourism industry and its forms, as well as the importance of the tourism industry today.

Key words: Tourism, form, international, travel, tourist, Amir Temur, knowledge, country, Uzbek tourism national company, tourist route, classic route.

Turizm fransuzchadan olingan bo`lib sayr, sayohat ma`nolarini anglatadi. Turizm bu sayyohlik — sayohat qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog`lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda ya`ni mamlakatda haq to`lanadigan faoliyat bilan shug`ullanmagan holda uzog`i bilan 1 yil muddatga jo`nab ketishi tushuniladi. Turizmning boshlang`ich tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Birinchi bo`lib, Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyoхligini tashkil etgan edi. Shundan so`ng u o`zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda birinchi sayyohlik guruhlari AQShga jo`natildi. Sharqda arab sayyoхi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika yurtlarini piyoda kezib chiqdi.

Movarounnahrda ilk sayyoхlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo`lgan va uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrdagi ijtimoiy hayot va sayyoхlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan. Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko`p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari

orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyuştırıldı. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud masalan, ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar.

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi 27-iyul, 1992-yilda tuzilgan va shu kompaniya olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalar.

"O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: klassik yo'nalish bunda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, BuxoroShahrisabz, Toshkent. Bu yo'nalish eng qadimiy. yodgorliklar va boshqa tarixiy-madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq; ekologik turizm yo'nalishi. Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyoqlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq; arxeologik turizm yo'nalishi Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo'yab. Bu yo'nalish O'zbekistonning eng qadimiy topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi; ekstre mal turizm yo'nalishi Chimyon, Farg'ona vodiysi, Orol bo'y, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo'yab; liniy turizm yo'nalishi Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent bo'yab — mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog'liq.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yeqtalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan 20-avgust 1999-yilda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni (15-aprel 1999) sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o'rta turistik korxonalarining xizmat ko'rsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb kilish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyoqlik tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi. U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada bo'lib faoliyat olib boradi. O'zbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud bo'lib, ular "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Beldersoy dam olish oromgohlari va yuzga yaqin xususiy mehmonxonalar ishlayapdi. O'zbekistonda ko'plab turistlarni

qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan mehmonxonalar soni tobora o‘sib bormoqda.

O‘zbekiston 1993-yilda o‘z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO; 1975-yilda tuzilgan)ga a’zo bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a’zosidir. 2004-yil "Buyuk ipak yo‘li" loyihasi doirasida Samarqand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda turizm sohasiga oid "Buyuk ipak yo‘li" xalqaro turistik reklamaaxborot gaz. (1994-yildan), "Biznes Gayd" JUR (RUS va ingлиз tillarida) va boshqa ommaviy nashrlar chop etilayapdi.

2021-yil aprel oyida Dog‘istonda O‘zbekistonning ziyorat turizm salohiyati taqdimoti o‘tkazildi. Bosh vazir o‘rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov topshirig‘i bilan Dog‘istonda «Imomlar yurtiga sayohat» yo‘nalishidagi targ‘ibot ishlari boshlangan.

Turizmnинг juda ko‘p turlari hamda shakllari mavjud:

- Ichki xalqaro;
- Havaskorlik turizmi;
- Uyushgan turizm;
- Yaqin j oyga sayohat;
- Uzoqqa sayohat;
- Bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm;
- Toqqa chiqish;
- Suv turizmi;
- Avtoturizm;
- Piyoda yuriladigan turizm;
- Sport turizmi va boshqalar.

Turizm-sayohat. Uning mazmunida dam olish, hordiq chiqarish, jismonan chiniqish, o‘lkani o‘rganish, ijtimoiy-foyDALI mehnat qilish, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muvozanatni saqlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy hamda madaniy jarayonlar mujassamlashgan.Ularni amalga oshirishda tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash lozimki, sayohatning bu yo‘nalishidagi vositalaridan jahondagi ko‘p mamlakatlarda maqsadli foydalanib kelinmoqda. Shu sababdan turizmnинг o‘ziga xos tarixiy rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiyiqtisodiy, madaniy va siyosiy faoliyatları bilan bevosita bog‘liqdir.

E’tirof etish lozimki, sayr-sayohatlar xalqaro miqyosdagi eng ommaviy-madaniy tadbirlardan biridir. Tarixiy-madaniy obidalarni tomosha qilish, ularning tarixi bilan tanishish, zamonaviy qurilishlar, hashamatli uylar, chiroyli bog‘-rog‘lar, millatlarning urf-odatlarini o‘rganish, tili kabi sohalar sayohatchilarining diqqat-e’tiboridan keng joy oladi. Bunda transport foydalanish, moliyaviy xarajatlar, yashash joylari hamda oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, madaniy xizmatlar ancha ustuvor tashkiliy faoliyat

hisoblanadi.O‘zbekiston geografik joylashuvi va tabiiy muhiti hamda tarixiy obidalarga boy bo‘lgan shaharlari sayr-sayohatlar vq piyoda yurish uchun juda qulay hisoblanadi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar. Toshkent, Navoiy, Guliston kabi zamonaviy shaharlarning ko‘rki va yangi jamoli faqat mamlakatimiz aholisinigina emas, balki xorijiy mamlakatlarning ham diqqatini tortadi.

Xulosa qilib aytganda, turizmning sayr-sayohat va piyoda yurish shakllari mazmun va mohiyat jihatdan o‘z xususiyatlariga egadir. Ularni maqsadli uyuştirish va olib borishda mutasaddi xodimlarning o‘z mas’uliyatlarini bajarishi juda muhim.Turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlash uchun shar sharoitlar tayyorlash lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Erkayeva Barno Abdurahimovna " O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY JIHATLARI ".
2.Qudratov G‘.X., Tuxliev I.S. Turizm iqtisodiyoti. – Samarqand, SamISI, 2007.
3. Tariqulov M. O, Nabiyeva S. A “Ekskursiyashunoslik” fani bo'yicha ta'lim texnalaogiyasi. Toshkent 2006 y. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti.
4. I.S.Tuxliev, M.Q.Pardaev. Turizmda xizmat ko`rsatishni rivojlantirish aholi bandligini oshirish manbasi. - T., 2008. -18 b.
5. X.M.Mamatkulov. Turizm va servisga oid izohli lug‘at. -Samarkand, 2010. - 201 b.

Internet manbalari

- 1.<https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasining-tarixi-va-uning-rivojlanish-davrlari-yurtimizning-tarixiy-manzilgohlari>
- 2.<https://kun.uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-unirivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F01%2F02%2Fuzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-uni-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari>
- 3.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Turizm>

**JINOIY HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHDA GUMONLANAYOTGAN
SHAXSNI HIMOYALASHDA ADVOKAT QO‘LLASHI MUMKIN
BO‘LGAN CHORALAR**

O‘rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 4-108-guruh talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Anontatsiya: bu maqolada huquqbazarlik turlari va jinoiy huquqbazarlik sodir etishda gumonlanayotgan shaxsni himoyalashda advokat qo‘llashi mumkin bo‘lgan choralar, birinchi sud qanday va qay holatda paydo bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltirilib, xulosalar aytilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyat, jinoyatchi, huquqbazar, huquqbazarlik turlari, jinoiy huquqbazarlik, jazo, konstitutsiya, norma, prinsip, qonun, Ombudsman, xulq-atvor, modda, Xalqaro sud, retsidivist jinoyatchi, obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv.

Bilamizki, har bir shaxs alohida bir dunyoga ega ya’ni biron insonning harakteri boshqa insonda qaytarilmaydi. Hatto ona qornidaligidayoq bir paytda paydo bo‘lgan egizaklarning ham dunyoqarashi turli-tumanni aks ettiradi. Endi ko‘rinib turibdiki, shaxs xatti-harakatlari va xulq-atvori turlicha. Huddiki insonning barmoq izlari kabi qaytarilmasdir. Insonni tug‘ilibdiki uning shaxsiyati rivojlanana boshlaydi. Yillar davomida bu shaxsiyat rivojlanib uning xulq-atvoriga aylanadi.

Jinoyat yoki jinoyatchi ha, bu so‘zlar har bir insonga notanish emas. Bu so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini ko‘p inson bilmasa ham lekin jinoyat deganda davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan normalarga xilof ish qilib, taqiqlangan va ijtimoiy xavfli bo‘lgan qilimishni sodir etish bu jinoyat ekanligini bilishashadi. O‘zi jinoyat so‘zining lug‘aviy ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi¹. Bu yuqorida keltirilgan qilmishni sodir etgan shaxs albatta jinoyatchi hisoblanadi. Lekin shu jinoyat sodir etgan shaxslar ya’ni jinoyatchilar deb tamg‘a qo‘ygandek qo‘l bilan ajratib ko‘rsatayotgan insonlarimiz aslida jinoyatchimi? Ular ba’zi qabih niyatli insonlar girdobiga tushib qolmadimikan? Bu kabi savollar aslida hech kim jinoyatchi yoki huquqbazar bo‘lib dunyoga kelmaydi, balki atrof-muhitdagagi hodisa va jarayonlar natijasida inson shaxsi rivojlanadi degan g‘oya tarafdarlari tomonidan paydo bo‘lgan. To‘g‘rida hech kim ona qornidan huquqbazar bo‘laman,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

yoki qulog‘iga azon aytilib yaxshi niyat ila o‘sib kelayotgan yosh go‘dakka sen jinoyatchi bo‘lasan deb niyat bildirmaydi-ku. Aslida o‘ta shafqatsiz va retsidivist jinoyatchilar bilan suhbat olib borilganda ham, ularga yoshligida yoki o‘spirinlik davrida ularga tazyiq o‘tkazishgan bo‘ladi. Va ularning bu psixologiyasidan katta tramma hosil qilib, yillar o‘tib bu o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Davlatlar paydo bo‘libdiki, ular o‘z qonun-qoidalariga ega bo‘lishga intilib kelgan. Chunki har bir davlat an’anasi, turmush- tarzi yoki boshqa hayot kechirish qoidalariga har xildir. Shuning uchun ular o‘z davlatlarida o‘z qonunlarini yaratishadi. Sud yoki sud hokimiyati tushunchasi 1066 yilda Normanlarning Britaniyaga bostirib kelishidan keyin Qirol Kengashining ingliz qirollik sudyalari tomonidan paydo bo‘lgan. Qirollik sudyalari mahalliy yurisdiktsiyalarga sayohat qilish va tashrif buyurish orqali xabardor bo‘lgan mahalliy urf-odatlarni birlashtirib, qonunlar to‘plamini yaratdilar². Tarixdan ma’lumki, yurtimizda qozilar sud vazifasini bajarib kelgan. Hozir ham avval ham huquqbuzarlik va jinoyat turlari ham har xil bo‘lgan. Huquqbuzarlik so‘zining ma’nosiga ham qaraydigan bo‘lsak, huquqbuzarlik – bu huquq va muomala layoqatiga ega subyekt tomonidan harakat yoki harakatsizlik ko‘rinishida sodir etilgan, huquq normalariga zid keluvchi hamda shaxsga, mulkka, davlatga va butun jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qilmish³. Demak huquqbuzarlikni ham shaxsga, davlatga va mulkka zarar keltiruvchi va huquq normalariga zid xatti-harakat ham deb aytsak bo‘ladi. Huquqbuzarlik ham ayni paytda to‘rt guruhga bo‘linadi: ma’muriy, jinoiy, fuqarolik-huquqiy va intizomiy. Bular bir – biridan obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoniga ko‘ra farq qiladi⁴. Endi jinoiy huquqbuzarlik sodir etishda gumonlanayotgan shaxsni advokat tomonidan himoyalanishi bu juda katta va e’tibor qaratadigan narsa. Chunki u shaxs bu huquqbuzarlikni sodir etgan yoki sodir etmaganini faqat o‘zi biladi. U esa ayni vaqtida hech kimga ishonmaydi va kuchli qo‘rquv depressiya holatida bo‘ladi. Hozirda tergov faoliyatimizda qanchadan – qancha islohotlar bo‘layotgan bo‘lsa, qancha begunoh insonlar yillar o‘tib oqlanyapti. Bu ham bizni tergov faoliyatimizdagи oqsoqliklarimizdan biridir. Endi esa butun ma’suliyat advokatda. U aslida o‘sha huquqbuzarlik qanday va qay holatda bo‘lganini bilishi kerak va qo‘lidan kelgancha adolat qaror topishi uchun harakat qilmog‘i zarur. Avvalo advokat Konstitutsiyamizning 20-moddasi 4-qismiga ko‘ra, “Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy ta’sir choralar mutanosiblik prinsipiiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo‘lishi kerak”⁵ deb keltirib o‘tilgani yodidan chiqarmasligi kerak. Chunki huquqbuzarlik sodir etilibdiki, hamma tezroq huquqbuzarni topish va uni jazoga tortish kerakligi naznida

² <https://en.wikipedia.org/wiki/Court>

³ Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -209 bet

⁴ Davlat va huquq nariyasi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -210 bet

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023

tergov harakatlari olib boradi. Demak, tergov jarayoni huquqbuzar agressiv yoki psixologiyasi hali o‘ziga kelmagan bir paytda olib boriladi. Shuning uchun haqiqattan jinoyatchi-yu lekin o‘zicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar hodimlarini aldamoqchi bo‘layotgan shaxslarni yoki umuman aybi bo‘lmagan insonlarni insonparvarlik tamoyillariga mos bo‘lmagan ta’sir choralarini qo‘llab tergov harakatlari olib borishi mumkin emas. Bu Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo‘yilgandir! Advokat mana shu jihatlarga ham katta e’tibor qaratishi lozim. Agarda shu moddaning 5-qismiga ham nazar tashlasak, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”⁶ deb qo‘yilganiga ko‘zimiz tushadi. Bu ham so‘nggi yillardagi sud-huquq tizimida vujudga kelgan islohotlarni qonunchiligidimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotganini bir dalilidir. Yana advokat qo‘lidan kelgancha Xalqaro inson huquqlari bo‘yicha vakil ya’ni Ombudsmanga kerak bo‘lsa Xalqaro sudga ham murojaat qilishi kerak. O‘zining himoyasidagi shaxsni himoya qilish uchun qayta ekspertiza o‘tkazishi ham mumkin yoki tergov xulosasini ham olishi mumkin. Hozirda sud jarayonlari shaffofligini ta’minalash maqsadida sud jarayoni bo‘ladigan kungacha bo‘lgan vaqt davomida ikki tomon ham sud jarayoniga yaxshi tayyorlanishi uchun sud hokimiyati qo‘lidan kelgan barcha ishlarni bajarmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, hech kim jinoyatchi yoki huquqbuzar bo‘lib dunyoga kelmaydi. Bu atrofdagi muhit yoki qandaydir holat natijasida paydo bo‘ladi. Uning aslida huquqbuzar yoki jinoyatchiligin esa yillar o‘tib emas balki advokat va huquqni muhofaza qiluvchi organ hodimlari tomonidan adolatli tarzda belgilangan muddatlarda aniqlash yoki isbot qilish kerak. Sud protsessi bo‘layotgan yoki muddati belgilangan kungacha advokat qo‘lidan kelgan hamma narsani qilishi kerak. Chunki bu faqat sud hodimlari qo‘lida emas. Qarz ikki qo‘ldan chiqadi deganday, ikki tomon ham huquqbuzarlikni ochilishi uchun harakat qilishi kerak. Dalillar va yolg‘on guvohliklar tufayli asl aybdor jazosiz qolmasligi kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Court>
4. Davlat va huquq nariysi: darslik. – Toshkent: TDYU, 2022. -209 bet

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023

**SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR INSON
MANFAATLARI UCHUN**

O'rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 4-108-guruhan talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Anontatsiya: bu maqolada sud – huquq tizimidagi so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar, islohotlar va yutuqlar haqida, fuqarolarning huquq va erkinlarining kafolatlari davlat organlari tomonidan himoya qilinishi va so‘nggi yillarda inson manfaatlarini ko‘zlab chiqarilgan qaror, qonun va farmonlar haqida ma’lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar: sud, huquq, qonun, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, Harakatlar strategiyasi, farmon, modernizatsiya, qonuniylik, Oliy sud, iqtisodiy sudlar, ma’muriy sud va tergov faoliyati.

Rivojlanib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi yildan – yilga yangi o‘zgarishlar va islohotlar yurtiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu islohotlar yurtimizdagi hech bir sohani chetlab o‘tgani yo‘q. Ha, albatta bu islohotlar bo‘layotgan sohalardan biri bu sud – huquq tizimidir. Chunki har bir inson qonun ustuvor bo‘lgan vatanda yashashni uning huquq va erkinlari davlat tomonidan kafolatlangan tarzda himoya qilishini, huquqni muhofaza qiluvchi organlar balki hamma tashkilotlar insonlar uchun xizmat qiladigan davlatda umr guzaronlik qilgisi keladi. Menimcha, shunday yurtga rivojlanish ham islohotlar ham yarashadi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan ilgari surilgan 2017 – 2021 yillarda yurtimizda Harakatlar strategiyasi esa yuqori keltirilgan islohotlarning bosh pillapoyasidir. E’tibor berib qaraydigan o‘lsak, yurtboshimiz tomonidan chiqarilgan har bir qonun yoki farmonda albatta qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini isloh qilish uchun bir band keltirilgani kishini hursand qiladi. Uzoqqa ketmaylik yuqori keltirilgan Harakatlar strategiyasi ikkinchi ustuvor yo‘nalishi ham sud-huquq tizimini isloh qilish va qonun ustuvorligini ta’minalash uchun bag‘ishlangan. Chunki davlat va jamiyatni modernizatsiya qilishda, eng avvalo sudning mustaqilligini ta’minalash va fuqarolarning huquq va erkinlarini maksimal tarzda davlat tomonidan kafolatli himoya qilish, qonuniylikni ta’minalash buning uchun barcha sohada korrupsiyaga qarshi kurash tizimini isloh qilish va rivojlantirish kabi vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, har bir inson mustaqil va xolis sudni talab qiladi. Chunki insonlar bu sud orqali buzilgan huquqlarini tiklashga, qaytarishga va himoya qilishga intiladi. Shuning uchun bu tizim huddi zilol suvdek toza va pok bo‘lishi kerak. Insonlarning xolis va mustaqil sudni

talab qilishi huquqi ham Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 10 – moddasida belgilab qo‘yilgan¹. Bu bilan faqat sud hokimiyatigina har bir haq – huquqi yetarli darajada himoya qilinmagan insonga yordam berishi mumkinligi aytildi. 2020 – yil 29 –dekabrdagi Prezidentning Oliy Majlisga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasida ham so‘nggi 4 yil davomida sud – huquq sohasini isloh etish borasida erishilgan yutuqlar aytildi. Bu yo‘nalishdagi ustuvor masalalar yuzasidan 40 dan ortiq qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, sudlar mustaqilligini ta’minlash maqsadida, Sudyalar oliy kengashi tashkil qilindi. Yana esa Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirib, Oliy sud faoliyatni takomillashtirildi. Hududlardagi xo‘jalik sudlar iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi va 71 ta tumanlararo, tuman(shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiya ko‘rib chiqish vakolati berildi².

Sud faoliyatida yana islohotlardan biri ilk marotaba sudyalar faoliyat yuritish tizimida besh yillik, o‘n yillik va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning moddiy – texnik masalalari to‘g‘risidagi vakolatlari adliya organidan olinib, Oliy sudga o‘tkazildi. Bu ham sudlar faoliyatida mustaqillik prinsipiiga yana bir dadil qadamdir. Sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflik tamoyillari naznida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamasida ko‘rib chiqildi. Ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.

Yana bir sud – huquq tizimidagi o‘zgarishlardan biri bu ma’muriy sudlarning tashkil topganidir. Bu endi fuqarolarga davlat organlari va mansabdor shaxslarning g‘ayriqonuniy xatti – harakatlari ustidan shikoyat berish huquqini beradi. Ha, bu ham juda katta yutuq. Chunki endi fuqarolar istalgan davlat organi yoki mansabdor shaxsi ustidan ma’muriy sudlarga shikoyat bera oladi va o‘zlarining buzilgan huquqlarini qonun doirasida himoya qiladi. Bu tizim ham prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan tashabbusdir. Bu haqida PF – 4850 – sonli va PF – 4966 sonli Farmonlarda, shuningdek O‘RQ – 428 son Qonunlarda aytib o‘tilgandir³. 2019 va 2020 yillar mobaynida ma’muriy sudlar tomonidan 31 321 ta ariza ko‘rilgani esa bu sud tizimi biz uchun zarur bo‘lganini bildiradi.

Bu kabi yutuqlar albatta ko‘p. Chunki inson huquqlarini himoya qilish – davlat organlarining bosh maqsadidir. Buni biz fuqarolar har jahbada va har lahzada his qilib kelmoqdamiz. Bu ishlar uchun albatta, Yurtboshimizga raxmat! Ularning “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak” deb aytgan gaplari yurtimizda o‘z aksini topib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda so‘nggi yillarda juda o‘zgarishlar bo‘lyapti. Bu barcha islohot va o‘zgarishlar xalqimizning turmush tarzini yaxshilash uchundir. Bu uchun Muhtaram Prezidentimiz jon kuydirib biz yoshlarga imkoniyatlar yaratib

¹ Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 – yil 10 dekabrdagi qabul qilingan(30 ta muddadan iborat).

² www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr

³ norma.uz – Axborot huquqiy portalni

bermoqda. Albatta biz bundan maksimal darajada foydalanamiz. Chunki Yangi O‘zbekiston biz yoshlar qo‘limizda. Yangi O‘zbeksitonda islohotlarning dolzarb bo‘g‘ini bo‘lgan qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida dadil qadamlar tashlanmoqda. Shubhasiz bu o‘zgarishlarni barchasining tubida xalq manfaatlari yo‘lida olib borilayotgan amaliy vazifalar turgani sir emas. Shuning uchun barcha sud – huquq tizimidagi islohotlar inson manfaatlari uchun xizmat qilmoqda deb baralla ayta olamiz!

Foydalanimanligi adabiyotlar:

- 1.strategy.uz sayti – 2021 25-noyabr
- 2.Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 – yil 10 dekabrda qabul qilingan(30 ta moddadan iborat).
- 3.www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr
- 4.norma.uz – Axborot huquqiy portali

ODIL SUDLOV – YANGI O'ZBEKISTON POYDEVORI

O'rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 108-guruh talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Adolat bu –davlatchilikning poydevoridir

Sh.M.Mirziyoyev

Anontatsiya: ushbu maqolada yurtimizdag'i islohotlar, sud-huquq tizmidagi yangi qonunlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, adolat, jazo, konstitutsiya, norma, prinsip, huquq va erkinliklar, modda, o'g'rilik, qonun.

Adolat bu - so'z har bir insonning ko'ngidan joy olgan kichik bir dunyo. Chunki insonlar bu so'zning tub mazmun mohiyatini ko'p yillardan beri ko'rib, eshitib yoki his qilib kelishmoqda. Davlatimizda ham so'nggi yillarda juda ko'p islohotlar bo'lmoqda. Hattoki so'nggi yillarimizni islohotlar davri, desak ham mubolag'a bo'lmaydi menimcha. Ayniqsa, bu islohotlar va o'zgarishlar sud – huquq tizimini ham chetlab o'tgani yo'q. Kundan – kunga shunday qaror-u farmonlar qabul qilinmoqda yoki yangi qonun loyihalar ommaga e'lon qilinib, muhokamaga qo'yilmoqda. Ha, bu kabi ishlar albatta har bir insonni ayniqsa, biz o'sib kelayotgan yosh avlodni befarq qoldirmaydi. Adolatning timsoli esa yurtimizda odil sudlovni amalga oshirayotgan sud hokimiyati hisoblanadi. Chunki prezidentimiz ta'kidlaganiday, "Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda sud hokimiyati hal qiluvchi o'rinni egallaydi"¹ deb bejiz aytmagan. Shunday ekan yildan – yilga aynan sud sohasida ham katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar – u islohotlar albatta inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligi ta'minlash, qonun oldida barcha teng ekanligini ta'kidlab fuqarolarga yetkazish, fuqarolarga sud jarayonlari shaffof va adolatlil o'tayotganini ko'rsatish uchundir. Chunki shu islohotlar sababli qanchadan – qancha inson taqdiri umuman boshqa tomonga o'zgarib, hayotida tub o'zgarish hosil qilmoqda.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning asl mazmuni ham fuqarolarga kafolatlangan huquq va erkinlik berishdan iboratdir. Bunda deyarli har bir moddaga yangi norma kiritilgan yoki tubdan o'zgartirilgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak;

¹ www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr

“30-modda. Hech kim rasmiy e’lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas”².

Yuqorida keltirib o’tgan 30-modda yangi qo’shilgan moddalar qatoriga kiradi. Bu degani bizda aynan shu moddaga qonunchiligidan ehtiyoj bo’lgan. Bu ham bir ayb qilib, nato‘g’ri yo’lga kirib qolgan insonlar uchun yengillik, yurtimizda olib borilayotgan insoniylik va odamiylik tuyg‘ulariga amalda rioya qilinayotganini isbotidir. Chunki misol uchun bir inson jinoyat qildi, ya’ni o‘g‘irlik jinoyatini sodir etdi. Bu albattada iqtisodiy sohadagi jinoyatlar turkumiga kiradi. Jinoyat kodeksining 2023 yil 23 martdagи O’RQ-822-tonli Qonunga asosan 169-moddaning 2-qismi “d” va “e” kichik bandlar bilan to’ldirilgan³. Demak, 2023 yil 23 martgacha bu bandlar jinoyat deb, Jinoyat kodeksiga kiritilmagan desak bo‘ladi. Endi bilgamizday har bir qonun bir necha bosqichdan keyin amalga joriy etiladi. Bular, birinchi qonunchilik tashabbusi bilan chiqiladi ya’ni sabablari tushuntiriladi, O’zi bu qonun nima uchun kerak? nega bizda bu norma bo‘yicha ehtiyoj sezilyapti? shu kabi savollarga javob beriladi. Ikkinchidan qonun loyihasi keng miqyosda muhokama qilinadi. Bejizga keng miqyosda deb ta’kiblab o’tmadim, chunki so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar va islohotlar tufayli har bir qonun loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilib, jamoatchilik fikri o‘rganilyapti. Bu ham islohotlarning bir yutug‘idir. Qonun loyihasi o‘rganilayotganda xalqaro qonunlarga va milliy qonunchiligidan mosligi ham o‘rganilib chiqib muhokama qilinadi. Uchinchidan esa qonunning qabul qilinishi hisoblanadi. Chunki ba’zi qonunlarda qonunning qabul qilish sanasi va amalga joriy qilinishi yozilib qo‘yiladi “2024 1martdan amalga joriy qilinsin” degan ruknga o‘xshab, lekin ba’zida esa yozilmaydi. Bunda ham qonunchiligidan yozib qo‘yilgan. Bunga ko‘ra, agar qonunda qachondan joriy qilinish muddati keltirilmagan bo‘lsa, qonun rasman e’lon qilingandan 10 kun o’tgach qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi. Boyagi o‘g‘irlik jinoyati 2023 yil boshida sodir etildi, ammo 169-moddaga “d” va “e” kichik bandlar qo’shilishi kerakligi muhokama davrida edi. Endi odil sudlov jinoyatchi muhokama qilinayotgan 169-modda 2-qismining “d” va “e” kichik bandlaridagi jinoyatni sodir etgan bo‘lsa ham aynan shu bandlar uchun jazoga torta olmaydi. Chunki Konstitutsiyamizning 30-moddasiga ko‘ra hali u rasman e’lon qilinmagan hisoblanadi. O‘g‘irlik sodir etgan shaxs albatta jazolanadi. Lekin bu jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralarini jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi. Balki u axloqan tuzalishi va yangi jinoyatni sodir etishining oldini olish uchun qo’llanilishi kerak. Yoki oldini olish

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023

³ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

uchun zarur hamda yetarli bo‘ladigan jazo tayinlashi kerak. Bu prinsip Jinoyat kodeksining 7-moddasida ham keltirib o‘tilgan⁴.

Ha, yuqorida keltirilgan hamma misollar odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlar qilinayotganini oddiy ko‘rinib turgan misolidir. Chunki sud azal-u azaldan ikki tomondan qaysi biri haqligi va to‘g‘riligi isbotlaydigan yagona hokimiyat hisoblanadi. Shuning uchun sud tizimida ishlaydigan har bir hodim avvalo halol va pok inson bo‘lishi kerak. Zero Odil suvlov – Yangi O‘zbekiston poydevoridir. Poydevor qancha mustahkam va sifatli xom-ashyodan bunyod qilingan bo‘lsa, u bino yillar davomida insoniyatga xizmat qiladi. Demak, Yangi O‘zbekiston poydevorini hamadolat, odillik, insoniylik tamoyillariga suyanib bunyod etsak, davlatimiz yildan-yilga rivojlanib, dunyo miqyosida o‘z o‘rnini topadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidan 2020 yil 29 dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – “Yuridik adabiyotlar publish” Toshkent. 2023
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

⁴O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – “Adolat” Toshkent. 2023

IMOM TERMIZIY ASRIDA HADIS ILMI TARAQQIYOTI
THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF HADITH IN THE
CENTURY OF IMAM TERMIZI
РАЗВИТИЕ НАУКИ ХАДИСОВ В ВЕК ИМАМА ТЕРМИЗИ

Abdurashid R. Madraximov

Muslim board of Uzbekistan,

*Student of The Higher school for
Hadith sciences*

Annotatsiya. Maqolada Imom Termiziygacha bo'lgan davr va Termiziy yashab, ijod qilgan hijriy III asrda hadis ilmining taraqqiyoti, dastlabki hadis kitoblari va III asrda yozilgan kitoblar o'rtasidagi farqlar, olimlarning hadis ilmidagi yangi atamalarni joriy etish bosqichlari, atamalarni qo'llash uslublari ochib berilgan.

Imom Termiziyning Imom Buxoriy, Muslim singari ustozlari o'z davrlarida hadis va uning ilmlari, hadis atamashunosligi, roviylarga ishonchlik va xotira taraflama baho berishda yangicha uslublarni amalda qo'llay boshlashgan. Hadislarni tanlab olish va o'z kitoblariga kiritishda juda ehtiyotkorona va e'tiborli bo'lishgan. Shu sabab ularning kitoblari jahonda hadis ilmidagi eng tabarruk manbaalar hisoblanadi. Butun dunyo Islom ulamolari "Sahih Buxoriy" va "Sahih Muslim" kitoblarini hadis borasidagi eng ishonchli to'plam ekanini bir ovozdan tan olishgan. Maqolada ularning hadis ilmiga qanday yangiliklar olib kirishgani va ulardan so'ng Imom Termiziy ham bu yangiliklarni qo'llagani, qo'shimchasiga o'ziga xos uslublardan ham foydalangani haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Xulosa qismida Imom Termiziyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi, yozgan "Sunan" asarining hadis ilmidagi ahamiyati alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Hadis ilmlari, hadis atamashunosligi, "Musnad", "Muvatto", "Jome", "Sunan" kitoblari.

Abstract. The article describes the development of hadith science in the period before Imam Termizi and in the third century of the Hijri when Termizi lived and created, the differences between the first hadith books and the books written in the third century, the stages of the introduction of new terms in the science of hadith by scientists, and the methods of using terms.

Imam Termizi's teachers, like Imam Bukhari and Muslim, in their time began to apply new methods in evaluating hadith and its sciences, hadith terminology, reliability and memory of narrators. They were very careful and considerate in selecting hadiths and including them in their books. For this reason, their books are considered the best sources of hadith science in the world. The Islamic scholars of the whole world have unanimously recognized the books "Sahih Bukhari" and "Sahih Muslim" as the most

reliable collection of hadith. The article contains information about how they brought innovations to the science of hadith, and after them, Imam Termizi also used these innovations, in addition, he also used his own methods.

In the conclusion, the contribution of Imam Tirmidhi to the development of hadith science, the importance of his work "Sunan" in the hadith science is highlighted.

Key words: Hadith sciences, hadith terminology, "Musnad", "Muwatta", "Jome'", "Sunan" books.

Аннотация. В статье описывается развитие науки хадисов в период до Имама Тирмизи и в третьем веке хиджры, когда жил и творил Тирмизи, отличия первых книг хадисов от книг, написанных в третьем веке, этапы внедрения хадисов. новые термины в науке о хадисах, предложенные учеными, и методы использования терминов.

Учителя Имама Тирмизи, как Имам Бухари и Муслим, в свое время начали применять новые методы оценки хадиса и его наук, терминологии хадисов, достоверности и памяти передатчиков. Они были очень осторожны и внимательны при выборе хадисов и включении их в свои книги. По этой причине их книги считаются лучшими источниками хадисоведения в мире. Исламские учёные всего мира единогласно признали книги «Сахих Бухари» и «Сахих Муслим» наиболее достоверным сборником хадисов. В статье содержится информация о том, как они привнесли новшества в науку о хадисах, а после них эти новшества использовал и Имам Тирмизи, кроме того, он использовал и свои собственные методы.

В заключении подчеркивается вклад Имама Тирмизи в развитие хадисоведения, значение его труда «Сунан» в хадисоведении.

Ключевые слова: наука о хадисах, хадисная терминология, книги «Муснад», «Муватта», «Джоме», «Сунан».

Mustaqillik yollarida o’z ilmiy-madaniy merosi bilan butun dunyoga ma’lum va mashhur buyuk ajdodlarimiz hayot yo’li va ijodini o’rganish, asarlarini o’zbek va boshqa tillarga tarjima qilib, xalqimiz va butun jamoatchilikka yetkazish ishlari jadal suratda amalga oshirilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi qarori qabul qilishi ham davlatimiz rahbari tomonidan ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosini o’rganishga qay darajada yuksak e’tibor qaratilayotganining yaqqol namunasidir. Shu qaror munosabati bilan 2024-yil oktabr oyida Imom Termiziy tavalludining 1200 yilligi nishonlanishi belgilandi.

Imom Termiziy rahimahullohning to’liq ismlari Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn az-Zahhok as-Sulamiy al-Bug’iy at-Termiziy. Kunyalari Abu Iso, nisbatlari Termiziy va Bug’iydir. Imom Termiziy rahimahullloh 209 hijriy sanada tavallud topgan. Bu milodiy 824-yilga to’g’ri keladi. Ba’zi rivoyatlarda 200/815 yili ham

deyilgan. Vafoti esa, 279-hijriy sana 13-rajabda bo‘lgan. Bu milodiy 892-yili 9-oktyabrga to‘g’ri keladi¹.

Imom Termiziy rohimahullohning hadis ilmida bu darajada yuksak maqom-martabaga erishishiga hadis ilmlari eng gullab-yashnagan, ravnaq topgan uchinchi asrda yashab, ijod qilgani juda katta yordam bergen. Bu asrga kelib hadis ilmlari ancha taraqqiy etib, o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Imom Termiziyning hadis ilmida katta olim bo‘lib yetishishiga o’sha vaqtida hadis ilmi gullab-yashnagani, uni rivojlantirishda beqiyos yutuqlarga erishilgani, shuningdek, Imom Termiziy bu ilmda buyuk imomlar hisoblangan Imom Buxoriy va imom Muslim, shuningdek o‘z asrining yetuk ulamolaridan ilm o‘rganishi ham sabab bo‘lgan.

Hijriy II asrda sunnatni himoya qilish, sahih hadislar orasiga kirib qolgan zaiflarini ajratish uchun hadislarni kitob shakliga keltirish, hadis ilmi atamalarini bir me’yorga ko‘ra belgilab olishda katta ilmiy harakatlar yanada kuchaydi. Bu harakatlarning boshida Imom Buxoriy va Muslimning katta ustozlari singari buyuk olimlar turishgan. Hijriy II asrning boshida ba’zi imomlar hadis kitoblaridagi Nabiy sollallohu alayhi vasallamning hadislarini sahoba va tobe’inlarning gaplaridan ajratish, marfu’ hadislarini alohida kitob shakliga keltirish kerak deb hisoblashdi. Shu sabab “Musnad” kitoblar paydo bo’ldi. Hadislar tadqiq qilinib, “Musnad”larga jamlana boshladi. Ubaydulloh ibn Muso al-Bustiy, Nu’aym ibn Hammod, Asad ibn Muso, keyinroq Imom Ahmad, Is’hoq ibn Ibrohim al-Hanzoliy, Abu Xaysama Zuhayr ibn Harb va boshqalar o‘zlarining “Musnad” kitoblarini yozishdi. Musnad kitoblar shu darajada ko‘payib ketdiki, “Musnad” yozmagan juda kam olimlar qoldi. Yuqorida aytib o’tilgan olimlar imom Buxoriy va Termiziyning ustozlari edi.

Bunday faol sa’y-harakatlar natijasida hadis ilmlarida katta rivojlanish sodir bo’ldi. Hadis ilmi masalalari tahrirlandi, bu ilmning turli kategoriyalari, atamalari alohida ajratildi. Masalan: Imom Buxoriyning ustozi Ali ibn Madiniy sabab hadislarni sahih, hasan va zaif turga ajratish paydo bo’ldi. Ali ibn Madiniydan avval bu atamalarni qo’llash keng tarqalmagan edi. Bu haqida Hofiz Ibn Rajab o‘zining “Sharh ilal at-Termiziy” asarida quyidagi gapni keltiradi: “Avvalgi olimlar ko‘pincha hadislarga nisbatan “Bu sahih hadis” yoki “Bu zaif hadis”, deyishar edi”². Ya’ni Ali ibn Madiniygacha hadislarni uch xil qism (sahih, hasan va zaif)ga bo‘lish unchalik ommalashmagan. Hofiz Ibn Hajar ham “Nukat” asarida mana bunday deydi: “Ali ibn Madiniy o‘zining “Musnad” va “Ilal” asarida ko‘p bor hadisi shariflarni “Sahih” va “Hasan” deb ta’riflagan. U bu atamalarni eng birinchi bo‘lib ishlatgan imom hisoblanadi. Undan bu atamalarni Buxoriy, Ya’qub ibn Shayba va boshqalar o‘zlashtirgan. Termiziy esa bu atamalarni Buxoriydan o’rgangan”³.

¹ Qarang: Abdulkarim as-Sam’oni. al-Ansob. 3-jild. – Qohira, 1980. – B

² Qarang: Zayniddin Abulfaroj Abdurrahmon ibn Ahmad al-Bag’dodiy, Ibn Rajab al-Hanbaliy. Sharh ilal at-Tirmiziy. 1-jild. – Damashq, 2019.

³ Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniy. An-nukat ‘ala kitab ibn as-Solah. 1-jild. – 1984. Madina. – B. 15

Aynan shunday mehnatlar samarasi o’larоq hadis ilmi yo’nalishlari bir me’yorga tushdi. Yuqorida nomi zikr qilingan olimlardan keyin yana bir tabaqa yetishib chiqib, ulardan ilm olishdi. Bu tabaqada Imom Buxoriy, Muslim, Ya’qub ibn Shayba singari olimlar Imom Termiziy ustozlari hisoblanadi. Termiziy ulardan ta’sirlangan, ilm o’rgangan. Termiziyning ustozlari to o’zlari ko’zlagan maqsadga erishguncha hadis va unga oid ilmlarni tadqiq qilish, tekshirish bilan uzlucksiz shug’ullandilar.

Hijriy II asr oxiri – III asr boshlarida hadislarni bir kitobga jamlash va ularni boblarga tartiblash jarayoni yanada rivojlna boshladi. Bunda aksar olimlarga Imom Molikning “Muvatto” kitobi quvvati kuchli hadislarni tanlab olishda asosiy namuna vazifasini o’tadi. Imom Buxoriy va Muslim sahih marfu’ hadislarni boblarga tartiblagan holda bir kitobga ajratish kerak deb hisoblashdi. Bu bilan ular hadis kitoblarini yozishdagi ikki uslub “Musannafot” va “Musnad”lar uslubini bir yerda jamlashdi. Chunki hadislarni boblar shaklida tartiblash “Musannafot” kitoblarining uslubi edi. Sahih hadislarni tanlab olishda “Muvatto”dan andoza olishdi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning hadislarini sahoba va tobe’inlarning gaplari, naqlaridan ajratish bu “Musnad” mualliflarining uslubi edi.

Shundan so’ng olimlar yuqoridagi uslubni afzal ko’ra boshlashdi. Hadis kitoblarini boblarga bo’lib chiqishdi. Natijada hadislari fiqhiy boblarga taqsimlangan “Sunani Abu Dovud”, “Sunani Termiziy”, “Sunani Nasoiy”, “Sunan Ibn Moja” singari kitoblar dunyo yuzini ko’rdi.

Hadis kitoblarini yozishning bu turida ikkita alohida uslub paydo bo’ldi va mualliflarning asosiy o’rganish predmetiga aylandi:

Birinchi: Kitobdagi hadislardan fiqh, hukmlar va qonun-qoidalarni ishlab chiqish e’tibor qaratish. Bu Imom Buxoriyning uslubi edi. Imom Molikning “Muvatto”si bu uslubda avvalroq yozilgan kitob bo’lishiga qaramay, uning masalalari juda kam edi. Imom Buxoriy esa ancha keng uslubni tanladi. Turli xil boblar, mavzularni kitobida qamrab oldi va fiqhiy hukmlar va qoidalarni ishlab chiqishda o’z mahoratini ishga soldi. O’z ishi bilan puxta shug’ullangani sabab bu uslubdagi haqiqiy namunaga aylandi.

Ikkinchi: Isnod fani va hadis sanadlarining yo’nalishi, undagi foydalarga ko’proq e’tibor qaratish. Bu imom Muslim ibn Hajjojning uslubi hisoblanadi.

Bu tabaqadagi olimlar sa’y-harakati o’larоq hadis atamalari aniq belgilandi, hadisning turlari bir-biridan ajratildi. Hadislarni qabul qilish va rad etish jihatidan uch qismga taqsimlandi. Eng yuqori darajada, birinchi navbatda qabul qilinadigan hadislarga nisbatan sahih, o’rta darajadagi hadislarga hasan, qabul qilinmaydiganlariga nisbatan esa zaif atamasi qo’llana boshlandi.

Imom Termiziy ilm sahnasiga kelganda barcha yo’nalish va uslublar bir me’yorga solingen, aniq belgilab qo’yilgan edi. Shu sabab u o’z uslublarini ustozlaridan qabul qilib oldi. Hadislarni taqsimotlari va umumiy qoidalarda ustozlarining maslagiga

ergashdi. Ulardan hukmlar, hadislarga taalluqli ayrim foydalar va bundan boshqa masalalarni hadisma-hadis qabul qilib oldi. Masalan:

أخرج حديث حمنة بنت جحش في المستحاضة وقال: "سألت محمدًا عن هذا الحديث فقال: هو حديث حسن صحيح، هكذا قال أحمد بن حنبل: هو حديث حسن صحيح".⁴

Imom Termiziy Hamna binti Jahsh roziyallohu anhodan istihozali ayol haqidagi hadisni keltirib bunday deydi: “Muhammad (Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy)dan bu hadis haqida so’radim. U “Bu hasan sahif hadis”, dedi. Huddi shunday Ahmad ibn Hanbal ham “Bu hasan sahif hadis”, degan”.

Bunga yana bir misol Imom Termiziy o’z “Jome” sida foydalangan mashhur “Hasan sahif” so’zi singari ba’zi hadis atamalarining tarkibiy qismlarini Buxoriy, Ya’qub ibn Abu Shayba, Abu Ali at-Tusiy kabi imom Termiziyning ustozlari tabaqasi ham qo’llaganini ko’rishimiz mumkin⁵.

Imom Termiziy “Ilal”⁶ kitobida “Jome” asarida aytib o’tgan gaplarning aksari Imom Buxoriy bilan munozara qilgan, ayrimlari esa imom Dorimiy va Abu Zur’ a bilan muhokama qilgan ma’lumotlar ekanini bildirib o’tgan.

Abu Iso at-Termiziy o’zining asarlari bilan juda ham mashhur bo’lib ketdi. Tarixshunoslar uning asarlari hammaga ma’lum va mashhur ekanini tan olishadi va muallifning sa’y-harakatlariga tahsin aytishgan. Termiziyning hadis ilmida imom darajasiga yetishiga yozgan asarlari sabab bo’lgan deb xulosa qilishadi. Imom Termiziyning mashhur asarlari sirasiga quyidagilar kiradi:

1. “Al-Jome” – muallifning eng katta kitobi, “Sunan at-Termiziy” nomi bilan ham mashhur.
2. “Ash-Shamail an-nabaviyya val-xosoil al-mustofviyya” – “Shamoil at-Termiziy” nomi bilan mashhur. U o’z bobida yozilgan katta kitob hisoblanadi.
3. “Al-ilal al-mufrad” yoki “Al-ilal al-kabir”.
4. “Zuhd” kitobi.
5. “At-Tarix”.
6. “Asmo as-sohaba”.
7. “Kitab fi al-asar al-mavqufa”.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Imom Termiziy o’z asrining ko’zga ko’ringan muhaddis olimi, hadis ilmlarida yetuk darajaga erishgan shaxs bo’lgan. Bunga imom Buxoriy, Muslim singari buyuk ustozlaridan ilm olib, ulardan o’zlashtirgan bilimlarini amalda qo’llagani va bor imkoniyatini ilm yo’lida sarf qilgani sabab bo’lgan, albatta. Yurtimizda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilmga, xususan vatanimizda yetishib chiqqan allomalar merosiga bo’lgan e’tibor samarasi o’laroq bunday ajdodlarimizning ma’naviy boyliklari yanada ko’proq tadqiq

⁴ Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Sunan at-Termiziy. 1-jild. – Bayrut. 1996. – B. 12

⁵ Qarang: Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdurrahmon as-Saxoviyy. Fath al-mug’iys bi sharh alfiyat al-hadis lil Iroqiy. – Qohira. 2003. – B. 35.

⁶ Qarang: Zayniddin Abulfaroj Abdurrahmon ibn Ahmad al-Bag’dodiy, Ibn Rajab al-Hanbaliy. Sharh ilal at-Tirmiziy. 2-jild. – Damashq. 2019. – B. 332.

qilinib, o'rganilayotgani, asarlari o'zbek va chet tillariga tarjima qilinayotgani tafsinga sazovor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi. Sunan at-Termiziy. 1-jild. – Bayrut. 1996.
2. Zayniddin Abulfaroj Abdurrahmon ibn Ahmad al-Bag'dodiy, Ibn Rajab al-Hanbaliy. Sharh ilal at-Tirmiziy. 1-jild. – Damashq, 2019. Dar al-minhaj al-qoviyim.
3. Abdulkarim as-Sam'oniy. al-Ansob. 3-jild. – Qohira, 1980.
4. Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniy. An-nukat 'ala kitab ibn as-Solah. 1-jild. – 1984. Madina.
5. Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdurrahmon as-Saxoviy. Fath al-mug'iys bi sharh alfiyat al-hadis lil Iroqiy. – Qohira. 2003.

Internet saytlari: Muslim.uz

MUSIC THERAPY: IBN SINA'S APPROACH OF USING MUSIC AS MEDICINE

Toshboyeva M.

*Uzbek National Institute of Musical Arts
named after Yunus Rajabi. In Tashkent*

Annotation

Music therapy has gained renewed interest in modern medical practices, but its roots can be traced back centuries to early scholars like Ibn Sina (Avicenna), who recognized music's therapeutic potential. This article delves into the pioneering ideas of Ibn Sina, especially from his work *The Book of Healing*, and examines how he perceived music as a form of medicine. The paper also explores the scientific connection between musical rhythms and human physiology, particularly the heart rate, while linking these ancient practices to modern applications of music therapy in Uzbekistan. Finally, it suggests methods to enhance the role of music therapy in contemporary healthcare systems.

Key words: Music Therapy, Ibn Sina, The Book of Healing, Therapeutic Music, Heart Rate and Music, Uzbek Modern Medicine, Holistic Healthcare, Physiological Effects of Music

Introduction

Music therapy, as a discipline, is the clinical and evidence-based use of music interventions to accomplish individualized goals, such as reducing stress, improving mood, and enhancing cognitive functions. Although today's music therapy programs are often associated with modern psychology and neurology, the practice has deep historical roots. Throughout history, scholars have explored music's effect on the mind and body. One of the earliest proponents of using music for healing was the Persian polymath Ibn Sina (also known as Avicenna in the West), who lived during the Islamic Golden Age. His philosophical and medical theories laid down a framework for understanding the link between the human soul and physical well-being, with music acting as a bridge between the two.

The current resurgence of interest in holistic approaches to healthcare opens the door for examining Ibn Sina's ideas, particularly in light of the evidence linking music to neurological and physiological processes. This article explores how music therapy, rooted in ancient traditions, has evolved into a recognized field and its potential for modern medical applications, with a focus on Uzbekistan's healthcare system.

How the music therapy was born

The origins of music therapy can be traced back to various ancient civilizations. The Greeks, for instance, believed in the doctrine of ethos, which held that music could

directly influence human emotions and even morality. However, it was during the Islamic Golden Age that the medicinal properties of music were deeply explored in a scientific manner. This exploration was most prominently carried out by Ibn Sina, whose ideas revolutionized the medical understanding of the time.

Ibn Sina's interest in the connection between the mind, body, and soul led him to explore the therapeutic properties of music. In his time, physicians and scholars believed that disease was not just a physical ailment but could also stem from an imbalance within the soul. Ibn Sina viewed music as a means of treating both the physical and psychological aspects of disease, particularly emotional and mental illnesses. He saw music as a tool to influence the 'humors' of the body—a concept derived from the theory of the four humors in ancient Greek medicine—and to balance emotional states, which, in turn, would contribute to overall health.

In particular, Ibn Sina's understanding of rhythmic patterns and their effect on the body anticipated modern findings on how music can affect heart rate, respiratory function, and brainwave activity. His work emphasized the psychological effects of melody and rhythm, proposing that certain modes and scales could induce specific mental states. This early framework laid the foundation for what we now recognize as music therapy.

The Book of Healing by Ibn Sina

One of Ibn Sina's most famous works, *The Book of Healing* (*Kitab al-Shifa*), is an encyclopedic volume that covers a wide range of topics, including logic, natural sciences, mathematics, and medicine. Within this vast text, Ibn Sina touches upon the therapeutic potential of music in several contexts, reflecting his holistic approach to medicine. He was among the first scholars to recognize music's influence not only on emotional well-being but also on physical health, particularly through its regulation of bodily functions.

In *The Book of Healing*, Ibn Sina explains that music, when applied correctly, can balance the four humors of the body—blood, phlegm, yellow bile, and black bile. According to the prevailing medical theories of his time, disease was often the result of an imbalance among these humors. By influencing the patient's emotional state, music could help restore equilibrium and contribute to recovery. For example, slow, calming music was believed to cool the blood and reduce inflammation, while faster, more energetic rhythms could stimulate the body and lift the spirits of those suffering from depression or melancholia.

Additionally, Ibn Sina categorized different musical modes and their specific effects on the mind and body. His understanding of how sound waves and vibrations affect human physiology was ahead of its time, prefiguring modern-day discoveries about how music interacts with the nervous system, alters brainwave patterns, and modulates heart rate variability.

Musical Rhythm and Human Heart Rate

In modern science, there is substantial evidence supporting the idea that musical rhythms can influence human physiology, particularly heart rate. The relationship between music and heart rate has been the subject of numerous studies that indicate music's ability to synchronize with bodily rhythms. Faster tempos tend to increase heart rate and induce arousal or excitement, while slower tempos can relax the body and lower heart rate. This concept aligns closely with Ibn Sina's theories about how music could influence the internal humors and restore balance within the body.

Scientific studies using electrocardiograms (ECGs) and heart rate variability (HRV) measures have shown that music can act as a tool to manage stress, anxiety, and cardiovascular conditions. Slow, soothing music has been found to induce parasympathetic nervous system activity, leading to a reduction in blood pressure and heart rate. On the other hand, upbeat, rhythmic music can stimulate sympathetic nervous system activity, leading to heightened alertness and readiness.

Ibn Sina's holistic approach resonates with these modern findings. He intuitively understood that rhythms and melodies could affect both the mind and body, and he employed this knowledge in treating patients. While he lacked the scientific tools available today, his observations about the interplay between music and physiological processes are supported by modern cardiology and neurology.

The Implication of Music Therapy in Uzbek Modern Medicine

In contemporary Uzbekistan, the role of traditional medicine, including music therapy, has been increasingly explored. While Western biomedical approaches dominate much of the healthcare system, there has been a growing interest in integrating traditional therapies, especially in the field of mental health and rehabilitation. Music therapy, rooted in the region's rich cultural history and inspired by scholars like Ibn Sina, is gaining recognition as a complementary treatment in various medical settings.

Uzbek hospitals and rehabilitation centers have started incorporating music therapy programs to treat patients suffering from anxiety, depression, and trauma. In many cases, the therapy is used as a non-invasive, holistic method to support conventional treatments. For example, patients recovering from surgery or dealing with chronic illnesses are often exposed to calming musical sessions to help lower stress levels, reduce pain perception, and aid in faster recovery.

Moreover, Uzbekistan's musical heritage, with its deeply rhythmic and melodic traditions, offers an ideal foundation for developing culturally resonant music therapy practices. Local musicians and healers are working together to explore how traditional Uzbek music, with its specific scales and modes, can be adapted for therapeutic purposes. This reflects a contemporary application of Ibn Sina's principles, demonstrating that his ancient insights remain relevant in today's healthcare landscape.

Conclusion

To fully realize the potential of music therapy, both in Uzbekistan and globally, several approaches need to be embraced. First, further scientific research should be conducted to provide more robust clinical evidence on the effects of music on various medical conditions. This will help integrate music therapy more deeply into mainstream healthcare systems.

Additionally, the development of standardized music therapy protocols and training programs for therapists is crucial. This can ensure that music therapy is administered by skilled practitioners who understand the cultural, emotional, and physiological dimensions of the treatment.

Finally, international collaborations between musicians, healthcare providers, and researchers can foster a global exchange of knowledge, allowing countries like Uzbekistan to combine traditional methods with modern medical technologies. By following these steps, the ancient wisdom of scholars like Ibn Sina can continue to inspire and inform the development of holistic healthcare practices for future generations.

Reference:

Ibn Sina (Avicenna). *The Book of Healing (Kitab al-Shifa)*. 1027.

Niedermeyer, Ernst, and Fernando Lopes da Silva. *Electroencephalography: Basic Principles, Clinical Applications, and Related Fields*. Lippincott Williams & Wilkins, 2004.

Thaut, Michael H. *Rhythm, Music, and the Brain: Scientific Foundations and Clinical Applications*. Routledge, 2005.

Sacks, Oliver. *Musicophilia: Tales of Music and the Brain*. Knopf, 2007.

